

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 61 (1660), 2026-yil 31-mart, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



IQTISODIYOTDA O‘SISH SUR‘ATLARINI SAQLASH VA DAVOM ETTIRISH CHORALARI KO‘RIB CHIQLDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga 2026-yilning birinchi choragida iqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozini ta‘minlash hamda jahon bozoridagi beqaror vaziyatning milliy iqtisodiyotga salbiy ta‘sirini kamaytirish yuzasidan axborot berildi.

Joriy yilning birinchi ikki oyida sanoat 7,7 foizga, xizmatlar 15,4 foizga o‘tdi, 3,5 milliard dollarlik eksport amalga oshirildi va 8,3 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilindi.

Yil boshidan 9 ta viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga respublika budgetidan qo‘shimcha 2,3 trilyon so‘m va 500 million dollar mablag‘ yo‘naltirildi. “Yangi O‘zbekiston qiyofasi” maqomi berilgan 33 ta tuman va 330 ta mahalla uchun mahalliy budgetlarga 3,9 trilyon so‘m ajratildi. Og‘ir toifadagi 37 ta tuman va 903 ta mahallaga jami 3,9 trilyon so‘m hamda mahalliy byudjetlardan 1,3 trilyon so‘m, 283 ta “drayver” loyihalarga birinchi bosqichda 1 trilyon so‘m ajratildi.

Yil yakuniga qadar gavjum ko‘chalar, sohilbo‘yi va yo‘lbo‘yi infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun jami 1,2 trilyon so‘m, turizm salohiyati yuqori bo‘lgan 150 ta mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun 450 milliard so‘m, 400 ta mahallada 50 ta mikrosanoat markazlarini tashkil qilish uchun 150 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltiriladi.

Shu bilan birga, qisqa vaqt ichida dunyodagi vaziyat keskin o‘zgarib, iqtisodiyot tarmoqlari barqarorligi, tashqi savdo yo‘laklari va import narxlariga qo‘shimcha bosim yuzaga keltirayotgani ta‘kidlandi. Bunday sharoitda har bir tarmoq va hudud rahbari vaziyatni oldindan baholab, turli senariyalar asosida proaktiv ishlashi zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Inflyatsiyani joriy yilda 6-6,5 foiz doirasida saqlab qolish eng muhim vazifalardan biri ekaniga alohida e‘tibor qaratildi.

Xususan, jahon bozorida neft narxining keskin qimmatlashgani transport va neft-kimyó mahsulotlari tannarxiga ta‘sir ko‘rsatayotgani, polietilen va polipropilen narxlarida ham o‘shish kuzatilayotgani aytiladi. Shu bois, asosiy turgadi oziq-ovqat mahsulotlarining importi, transport-logistika masalalari va muqobil yo‘laklardan foydalanish bo‘yicha tezkor choralar ko‘rish vazifasi qo‘yildi.

Bunday tashqari, tadbirkorlarning xomashyo, bozor va kredit bilan bog‘liq muammolarini hozirdan hal etish muhimligi ta‘kidlandi.

Eksportchilar tomonidan ko‘tarilayotgan asosiy masalalardan biri transport-logistika ekani, jahonda ro‘y berayotgan voqealar ta‘sirida eksport yuk tashishlarida uzilishlar va qimmatlashuv jiddiy xavotir uyg‘otayotgani ta‘kidlandi.

Shu munosabat bilan qo‘shni davlatlar bilan transport va savdo masalalari bo‘yicha yaqin hamkorlikni kuchaytirish, oziq-ovqat mahsulotlarini aviatashuv orqali eksport qilish va tadbirkorlar uchun arzonlashtirilgan tariflarni joriy etish choralari ko‘rish topshirildi.

Xorijiy investitsiyalar masalasi ham atroflicha ko‘rib chiqildi. Tahlikali xalqaro vaziyat ayrim loyihalar ijrosiga ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligi bildirildi. Shu munosabat bilan amalga oshirilayotgan har bir loyihani muntazam tahlil qilib borish va investorlar bilan kunlik muloqot o‘rnatish vazifasi belgilandi.

Bank-moliya sohasida biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilayotgan kreditlar dinamikasi ham ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari joriy raqamlar ijobiy bo‘lishiga qaramasdan, hech bir rahbar xotirjamlikka berilishi mumkin emasligini ta‘kidlandi. Hozirgi murakkab vaziyatda xavf-xatarlarni oldindan ko‘ra bilish, ularni yumshatish bo‘yicha aniq rejalar bilan ishlash, tarmoqlar va hududlarda muammolarni kutib o‘tirmasdan, ularga tezkor yechim topish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Mas‘ullarga inflyatsiyani jilovlash, sanoat va eksport ko‘rsatkichlarini ta‘minlash, investitsiya loyihalarini jadallashtirish, bank tizimi va qurilish dasturlaridagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan aniq topshiriqlar berildi.

O‘ZA

TINCHLIK VA HAMJIHATLIK – TARAQQIYOTNING MUHIM OMILLARI

Bugungi tezkor, shiddatli zamonda mamlakatimiz hayotining har bir kuni tarixga yozgulik. Deyarli har kuni bir necha yangiliklar bor: yangi korxonalar ishga tushiriladi, inshootlar qad rostlaydi, ilmiy-ma‘rifiy markazlar ochiladi.



Yangi O‘zbekistonning ikki durdonasi

Buyuk o‘zbek yo‘li

Muborak Ramazon kunlari bir qancha ezgu ishlar amalga oshirildi. Ular orasida ikki tadbir alohida ahamiyatga ega bo‘lib, nainki mamlakatimiz, mintaqamiz, ayni paytda butun musulmon olami hayotida tarixiy voqea bo‘ldi. Bular — poytaxtimizda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi va Samarqand zaminida qad rostlagan Imom Buxoriy majmuasi.

Bunday noyob inshootlar tinchlik va osoyishtalik barqaror yurtda barpo etilishi mumkin. Shukrki, mamlakatimiz tinch, buni alohida ta‘kidlamog‘daman — osmonimiz musaffo bo‘lgani uchun ham Toshkentda Islom

sivilizatsiyasi markazi, Samarqand viloyatining Payariq tumanida Imom Buxoriy majmuasi butunlay yangidan qad rostladi. Bu ikki inshoot yangi O‘zbekistonning durdonalari. Ularning tashqi ko‘rinishining o‘ziyiq har qanday insonni hayratga soladi, havasini keltiradi. Milliy me‘morlik an‘analari bilan zamonaviy arxitektura uslublari uyg‘unlashtirilgan. Har ikkala majma ham xalqimiz tarixi nihoyatda qadimi va boy ekanini, tabarruk zaminimizdan ne-ne buyuk allomalar chiqqanini, ular jahon tamadduniga salmoqli hissa qo‘shganini namoyon etadi.

Prezidentimiz tashabbusi va bevosita rahbarligida bunyod etilgan Islom sivilizatsiyasi markazida yurimiz tarixining islomgacha bo‘lgan davrini, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrini aks ettiruvchi ekspozitsiyalar mavjud. Ularni ko‘rgan yurtodoshlarimiz shunday qadim va boy tarixga ega xalq farzandi ekanidan g‘ururlanadi, faxrlanadi, ular qalbida vatanparvarlik tuyg‘usi kuchayadi. Ayniqsa, yoshlar uchun uning ahamiyati beqiyos. Xorijliklar esa millatimizning uch ming yildan ziyod tarixi borligiga, Birinchi va Ikkinchi Renessans aynan bizning yurtimizda

kechganiga, zaminimizda tug‘ilib voyaga yetgan va jahon ilm-faniga, xususan, falakiyot, tibbiyot, matematika, falsafa, adabiyot, tarix, geodeziya va boshqa sohalariga ulkan hissa qo‘shgan qomusiy olimlar haqida ma‘lumotlarga ega bo‘ladi. Markazda bir necha ulug‘ olimlarimizning obrazi sun‘iy intellekt yordamida jonlantirilgan. Ular turli tillarda o‘zi haqida so‘zlab beradi. Bular sho‘ro zamonida aytilgan “o‘zbek xalqining atigi uch foizi savodli bo‘lgan” degan da‘volar oddiy bir cho‘pchakdan boshqa narsa emasligini tasdiqlaydi.

Davomi 3-beta



Forum

QALBLAR TUTASHGAN NUQTA

“Do‘stlik stelasi” — Markaziy Osiyoning birdamlik timsoli



Farg‘ona viloyatida Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon do‘stlik forumi bo‘lib o‘tmoqda. Unda Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Ozarbayjondan tashrif buyurgan olimlar, ekspertlar, xalqaro, davlat va jamoat tashkilotlari, milliy madaniyat markazlari, do‘stlik jamiyatlari mas‘ullari, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etmoqda.

“Do‘stlik stelasi” poyiga gulchambar qo‘yishdan boshlangan forumga xalqlarimizning boy madaniy merosi, o‘ziga xos an‘ana va qadriyatlarini mujassam etgan qo‘shiq va raqslar ijrosi o‘zgacha tarov kiritdi. Ta‘kidlanganidek, 2025-yil 31-mart kuni Tojikistonning Xo‘jand shahrida o‘tkazilgan oliy darajadagi tadbir doirasida O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston davlat rahbarlari ishtirokida tantanali ochilgan “Do‘stlik stelasi” uch mamlakat o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni va o‘zaro ishonch yangi bosqichga ko‘tarilganining yorqin ifodasi bo‘ldi. “Do‘stlik stelasi” qisqa fursatda Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi azaliy birodarlik va hamjihatlik timsoliga aylandi.

Davomi 2-beta

Faxr



FIFA SERIES 2026™ INTERNATIONAL FRIENDLIES

Shunday g‘alabalar bo‘ladiki, bellashuv uchun maydonga bir marta tushiladi. Ammo o‘sha maydonga yetib kelguncha juda ko‘p sinov va dovonlar oshib o‘tiladi. O‘zbekiston milliy terma jamoasining navbatdagi g‘alabasi ana shunday sinovli yo‘llardan allaqachon o‘tib bo‘lganimiz, endi katta marralar sari dadil odimlayotganimizning yana bir tasdiqi bo‘ldi.

O‘ZBEKISTON MILLIY TERMA JAMOASI “FIFA SERIES – 2026” G‘OLIBI

Poytaxtimiz mezbonlik qilgan futbol bo‘yicha xalqaro “FIFA Series — 2026” musobaqasi o‘z nihoyasiga yetdi. Xalqaro futbol assotsiatsiyalari federatsiyasi (FIFA) tomonidan tashkil etilgan musobaqada O‘zbekiston, Venesuela, Gabon hamda Trinidad va Tobago milliy terma jamoalari ishtirok etdi.

Milliy terma jamoamiz birinchi uchrashuvda Gabon terma jamoasini 3:1 hisobida mag‘lubiyatga uchratgan bo‘lsa, venesuelaliklar Trinidad va Tobago ustidan yirik (4:1) g‘alabaga erishdi.

Musobaqaning hal qiluvchi o‘yinida O‘zbekiston milliy terma jamoasi Venesuelaga qarshi maydonga tushdi. Qiziqarli va keskin kurashlar ostida o‘tgan uchrashuvning asosiy vaqtda hisob ochilmadi. G‘olib penaltlar seriyasida aniqlandi. Unda hamyurtlarimiz 5:4 hisobida g‘alaba qozondi.

Quvonarli, Abduqodir Husanov mamlakatimizda o‘tgan “FIFA Series — 2026” o‘yinlarining eng yaxshi futbolchisi deb topildi.

Davomi 2-beta

O‘ZBEKISTON – TOJIKISTON: O‘ZARO ISHONCH, MANFAATLAR MUVOZANATIGA ASOSLANGAN ITTIFOQCHILIK

O‘zbek va tojik xalqlari azaldan qavmu qarindosh bo‘lib, bir zaminda, bir madaniy muhitda yashab kelgan, bir daryodan suv ichgan. Bu ikki birodar el o‘rtasidagi yaqinlik faqat geografik qo‘shnichilikda ko‘rinmaydi, balki asrlar davomida shakllangan umumiy qadriyatlar, o‘xshash urf-odatlar va mustahkam insoniy rishtalar bilan belgilanadi. Aynan shu tarixiy va ma‘naviy yaqinlik bugun o‘zining chinakam ifodasini topdi, ikki davlat munosabatlariida ishonchli poydevorga aylanmoqda.

Davomi 2-beta



Forum



QALBLAR TUTASHGAN NUQTA

“DO‘STLIK STELASI” — Markaziy Osiyoning BIRDAMLIK TIMSOLI

Boshlanishi 1-betda

Darhaqiqat, bugun Markaziy Osiyo tom ma'noda barqaror rivojlanish, mintaqaviy jipslashuv va xalqaro subyektlilikning yangi davriga qadam qo'yilmoqda. Prezidentimizning "Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida" maqolasi qayd etilganidek, "Bugun biz chinakam birdamlik bosqichiga o'tyapmiz. Bizning mintaqamizda uzoq yillar davomida ilk bor birgalikda oldinga qarab borishimiz uchun poydevor bo'lib xizmat qilayotgan o'zaro ishonch, yaxshi qo'shniçilik va hurmat muhiti shakllanmoqda.

Bu — o'z-o'zidan paydo bo'lib qolgan jarayon emas, balki umumiy taqdiri va birgalikda taraqqiy etish salohiyatini anglab yetgan mamlakatlarimiz yetakchilarining aniq maqsadga qaratilgan sa'y-harakatlari va siyosiy irodasi natijasidir. Ayni paytda bu jarayon o'zaro ishonch muhitida tobora qizg'in tus olayotgani Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlari tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan mintaqaviy hamkorlik keng ko'lamdagi zaruratga aylanganidan dalolatdir".

Farg'onaning O'zbekiston tumani Qirg'izistonning Botken tumani hamda Tojikistonning Isfara bilan chegaradosh, shuning uchun bu joy qadimdan turli millat vakillarining o'zaro yaqin aloqalari,

qo'shniçilik rishtalari va madaniy hamkorligi shakllangan maskan sifatida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

— Markaziy Osiyo xalqlarini bir-biriga bog'lovchi rishtalar juda ko'p, — deydi tojikistonlik Ne'matillo Muhammadsaid. — Xatlon viloyatida yashayman. Keyingi yillarda xalqlarimiz o'rtasida mehroqibat rishtalari yanada mustahkamlanib borayotgani ayni haqiqat. O'tgan hafta Tojikiston Prezidentining O'zbekistonga kelishi abadiy do'stlik rishtalari qanchalik mustahkam, umrboqiy ekanidan dalolat. Bugungi forum qardoshlik, birodarlik rishtalarini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini beradi. O'lmas milliy va diniy qadriyatlar, urf-odat, qudanda, qo'shniçilik singari ma'naviy aloqalar asrlar davomida shakllanib kelgan. Bir paytlar xalqlarimiz bir-biridan ayro yashashga urinishlar bo'ldi. Chegara postlariga beton to'siqlar qo'yildi. Oqibatda o'zaro bordi-keldi, qarindoshlik, birodarlik rishtalariga darz ketdi. Keyingi to'qqiz-o'n yilda davlatlarimiz o'rtasidagi yaqin hamkorlik tufayli xalqlarimizning do'stlik aloqalari yanada mustahkamlandi. Savdo-sotiq, sarmoya, ijtimoiy, madaniy sohalarida izchil rivojlanish bosqichi boshlandi. So'zimiz, o'y-qarashlar, maqsadlarimiz bir. Bunday hamjihat bo'lgan yurti hech bir mintaqada topib bo'lmaydi.



Forum doirasidagi tadbirlar mintaq xalqlarini yanada yaqinlashtirish, o'zaro anglashuvni mustahkamlash hamda umumiy taraqqiyot yo'lida hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

— O'zbek, qirg'iz, tojik, qozoq va ozarning yaqinligi, birligi, hamjihatligi et bilan tirmoqqa qiyoslanadi, — deydi Quvasoy shahridagi "Bo'ston" mahalla fuqarolar yig'inida umyuzaronlik qilayotgan Umidjon Mirzayev. — Qirg'izistonda opam, singillarim yashaydi. Bir zamonlar o'tdiki, chegaradagi turli to'siqlar tufayli yaqinlarimizni sog'ingan damlar oldiga borolmadiki, ular ham kelolmadi. Ming shukur, hozir vaziyat tamoman boshqacha: hech qanday to'siq yo'q. Bularning barchasi xalqlarimiz o'rtasidagi qardoshlik, birodarlik rishtalarini qayta bog'lamoqda. Mahallamizda "Tumorin" folklor jamoasi tuzilgan. Turli bayram tantanalariida hamnafas bo'lib kuy-qo'shiq, laparlari ijro etamiz. Bugungi uchrashuv ham qalbimizga olam-olam quvonch, shodlik olib kirdi.

Forum ishtirokchilari Farg'ona shahridagi "Do'stlik uyi"da turli millat va elatlarning milliy hunarmandlik, amaliy san'at, milliy taomlar va liboslar ko'rgazmasi bilan ham tanishdi.

Farg'ona davlat universitetida "Do'stlik stelasini — qardosh mamlakatlar o'rtasida do'stlik, yaxshi qo'shniçilik, ishonch va strategik sheriklik ramzi" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Anjuman mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichiga xos muhim jihatlarni qamrab olgani bilan e'tiborli bo'ldi. Ayniqsa, so'nggi yillarda yurtimizdagi keng ko'lamli islohotlar natijasida qo'shni va hamkor davlatlar bilan munosabatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilgani alohida ta'kidlandi. Konferensiya doirasida ilgari surilgan tashabbuslar va ilmiy yondashuvlar mintaqada barqarorlikni ta'minlash, o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish hamda do'stona aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilayotgani e'tirof etildi.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Munosabat

O'ZBEKISTON – TOJIKISTON:
O'ZARO ISHONCH, MANFAATLAR
MUVOZANATIGA ASOSLANGAN ITTIFOQCHILIK

Boshlanishi 1-betda

Ayniqsa, Oliy davlatlararo kengash tashkil etilishi va uning birinchi yig'ilishi o'tkazilishi hamkorlikni institutsional jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda davlatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar mutlaqo yangi mazmun bilan boyidi. Eng avvalo, davlat rahbarlari o'rtasida shakllangan ishonchli va ochiq muloqot muhiti barcha sohalaridagi hamkorlik rivojiga mustahkam asos bo'lmoqda. Bu ishonch hukumatlar, parlamentlar va tarmoq idoralari darajasida ham o'z aksini topib, doimiy va samarali muloqot tizimi shakllandi.

O'zbekiston va Tojikiston davlat rahbarlarining siyosiy irodasi va do'stona munosabatlar ortidan barcha chegaralar postlari ochildi. Odamlar chegaradan hech qanday to'siqsiz, amin-erkin o'tib qaytmoqda.

Darvoqe, chegara haqida so'z borganda yaqin yillardagi og'ir vaziyat yodimizga tushmasdan iloji yo'q. Shaxsan o'zim Surxondaryo viloyatida, shundoqqina Tojikiston bilan chegara yaqinida tug'ilib o'sgan inson sifatida bu o'zgarishlarning amaliy ahamiyatini chuqur his qilaman. Shunday paytlar bo'ldiki, quda-anda, qarindosh bo'lib ketgan odamlar hatto to'y-ma'rakalarda ham bordi-keldi qilolmadi. Shundoqqina yonimda — 18 kilometr masofaga borish uchun 800 chaqirim yo'l yurib Toshkentga kelishga, viza olish uchun haftalab kutishga to'g'ri kelardi. Bugun ana shunday mantiqsiz holatlarga barham berilgani, do'stlik urug'i naqadar tez va baravj unib, minglab xonadonlarga quvonch bag'ishlaganiga o'zim guvohman.

Chegara hududlarida davlatlar o'rtasidagi munosabatlar o'sha hudud aholisi kundalik hayotining ajralmas qismidir. So'nggi yillarda kuzatilayotgan ochiqlik, infratuzilma rivojlanishi, savdo va xizmat ko'rsatish sohalariga kengayishi bu hududlarda hayot sifatini sezilarli darajada yaxshiladi. Bu o'zgarishlar davlat rahbarlari darajasida qabul qilinayotgan qarorlar xalq manfaatiga qaratilganining yaqqol isbotidir.

Ushbu tashrifdan avval bo'ldiki, ikki davlat munosabatlari faqat siyosiy muloqot bilan cheklanib qolmay, endilikda barcha sohalaridagi hamkorlikni muvofiqlashtirish, nazorat qilish va yangi



Abdushukur HAMZAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi fraksiya rahbari

tashabbuslarni ilgari surish imkonini beruvchi yangi formatga o'tmoqda. Bu esa O'zbekiston — Tojikiston munosabatlarini strategik sheriklikdan amaldagi ittifoqchilik bosqichiga olib chiqishga zamin yaratadi.

Tashrif arafasida o'tkazilgan hukumatlararo komissiya yig'ilishi, sanoat ko'rgazmalari, hududlar forumi, rektorlar va olimlar uchrashuvlari, yoshlar va tahlil markazlari muloqotlari hamkorlikning ko'p qirrali va tizimli tus olayotganini ko'rsatadi. Bu esa munosabatlar faqat davlatlararo kelishuvlar doirasida emas, balki jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olayotganini anglatadi.

Iqtisodiy hamkorlik chin ma'noda bugungi munosabatlarimiz harakatlantiruvchi kuchiga aylangan. So'nggi yillarda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi izchil o'sib, bir milliard dollarga yaqinlashdi. Mazkur ko'rsatkich, ayniqsa, tayyor mahsulotlar ulushi hisobiga ta'minlanayotgani bilan ahamiyatlidir. Bu esa davlatlarimiz iqtisodiyoti o'rtasidagi kooperatsiya chuqurlashayotganidan dalolat. Shu nuqtayi nazaridan, 2028-yilga borib o'zaro savdo hajmini 2 milliard dollarga yetkazish bo'yicha qo'yilgan maqsad mutlaqo real va asoslidir.



Global beqarorlik sharoitida aynan mintaqaviy hamkorlik formatlari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omiliga aylangan. O'zbekiston yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan qat'iy siyosatini izchil amalga oshirgan holda Markaziy Osiyoda yangi iqtisodiy voqeçlikni shakllantirish tashabbuskori sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jahon iqtisodiyotining transformatsiyasi va logistika yo'nalishlarining qayta shakllanishi Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida barqaror va keng qamrovli aloqalarni rivojlantirishni taqozo etyapti.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'kidiga binoan Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning mamlakatimizga davlat tashrifi ikki tomonlama hamkorlikning amaliy iqtisodiy kooperatsiya va uzoq muddatli taraqqiyotga yo'naltirilgan sifat jihatidan yangi modelni yaratishda muhim bosqich bo'ldi.

Tor doirada o'tkazilgan muzokara va Oliy davlatlararo kengashning birinchi yig'ilishi ikki tomonlama munosabatlar ittifoqchilik va iqtisodiy siyosatni tizimli muvofiqlashtirish darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi. Ushbu

format yirik investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish uchun mustahkam institutsional asos yaratadi.

Bugun O'zbekiston — Tojikiston hamkorligida iqtisodiy ustuvorlik yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Xususan, 2017-2025-yillarda mamlakatlarimiz o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 3,8 baravar o'sdi. Ekspert ko'rsatkichi 3,7 baravar oshib, 683,1 million dollarni, import esa 4,4 baravar ko'payib, 229,3 million dollarni tashkil etdi. 2025-yilda o'zaro savdo aylanmasi 2024-yildagiga nisbatan 29,9 foiz, ekspert 24,1 foiz, import esa 13,8 foiz ortdi.

2026-yil 1-mart holatiga ko'ra, O'zbekistonda Tojikiston kapitali ishtirokidagi 420 ta korxonada faoliyat yuritilmoqda. 2017-2025-yillarda Tojikistondan jalb qilingan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning umumiy qiymati 373 million dollarni tashkil qildi.

Muzokaralar kun tartibida savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish va yangi ishlab chiqarish zanjirlarini yaratishga asosiy e'tibor qaratildi. Bu O'zbekistonning milliy iqtisodiyoti

IQTISODIY KOOPERATSIYA VA
UZOQ MUDDATGA YO'NALTIRILGAN MODEL

Aktam HAITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
fraksiya rahbari

modernizatsiya qilish va tashqi iqtisodiy faoliyatni jadallashtirish bo'yicha strategik maqsadlariga to'la mos keladi.

Prezidentimizning ochiqlik va yaxshi qo'shniçilik siyosati tufayli O'zbekiston mintaq xalqlarini yanada yaqinlashtirish, o'zaro anglashuvni mustahkamlash hamda umumiy taraqqiyot yo'lida hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu jarayonda Tojikiston bilan munosabatlar eng jadal sur'atda rivojlanmoqda. Sanoat kooperatsiyasi bu boradagi ustuvor yo'nalishdir. Qo'shma korxonalar tashkil etish, klaster tizimini rivojlantirish hamda xomashyoni chuqur qayta ishlash mintaq ichida qo'shilgan qiymat yaratish imkonini berib, iqtisodiy o'sishning asosiy drayveriga aylandi.

Transport bog'liqligini oshirish ham strategik ahamiyatga ega. Dengizga chiqish imkonini bo'lmagan Markaziy Osiyo davlatlari uchun samarali transport yo'laklari raqobatbardoshlik bosh mezon. O'zbekiston va Tojikiston hamkorligi doirasida transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'yicha ko'rilayotgan choralar logistika xarajatini kamaytirish va o'zaro savdo ko'lamin kengaytirishga xizmat qiladi.

Energetika sohasidagi sheriklik ham alohida ahamiyatga ega. Suv-energetika xavfsizligi masalalari mintaq uchun an'anaviy ravishda nozik mavzu bo'lib kelgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda ziddiyatli modeldan o'zaro manfaatli hamkorlikka o'tish kuzatildi. Resurslardan birgalikda foydalanish, gidroenergetikani rivojlantirish va energetika siyosatini muvofiqlashtirish ikki davlatning barqaror taraqqiyoti uchun zamin yaratadi.

Mazkur jarayonlar O'zbekiston va Tojikistonning investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish, xalqaro moliya institutlarini jalb qilish va qayta ishlabarmonlik muhitini yaratish borasidagi intilishlari qat'iy ekanini tasdiqlaydi. Bunday yondashuv biznes imkoniyatlarini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o'rnlari ochish maqsadlari bilan uyg'undur.

Hududlararo hamkorlik iqtisodiy integratsiyani muhim vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. Ikki mamlakat viloyatlari o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri aloqalar kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash hamda tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirishda muhim o'rin tutmoqda.

Sanoat kooperatsiyasi bu maqsadga erishishda hal qiluvchi omillardan biri. Bugungi kunda qurilish materiallari ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, to'qimachilik, elektronika, farmatsevtika va boshqa sohalarida qator qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Yaqin istiqbolda qabul qilinishi rejalashtirilgan Sanoat kooperatsiyasi dasturi ushbu jarayonni yanada tizimlashtirib, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, import o'rini bosish va eksportni diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Investitsiya sohasidagi hamkorlik ham sifat jihatidan yangi bosqichga chiqmoqda. Qo'shma investitsiya kompaniyasi kapitalni kengaytirish orqali yirik va istiqbolli loyihalarni moliylashtirish imkoniyati kengayadi. Bu esa nafaqat davlat, balki xususiy sektor faolligini ham rag'batlantiradi.

Transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish iqtisodiy integratsiyani muhim yo'nalishlardan biridir. Bugungi kunda ikki mamlakat po'yxatlarini o'rtasida aviaqatnovlar, avtobus va temir yo'l qatnovlari yo'lga qo'yilgani, yuk tashish hajmi ortib borayotgani sohada amalga oshirilayotgan ishlar samarasini yaqqol ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, yangi logistika yo'nalishlarini ochish va tranzit salohiyatidan samarali foydalanish masalalari ham kun tartibida turibdi.

"Oybek — Fothobod" chegaradoli savdo markazini barpo etish, mahsulotlarni sertifikatlash tizimlarini uyg'unlashtirish, "E-Permit" kabi raqamli yechimlarni joriy etish va chegara nazorat punktlarini modernizatsiyalash bo'yicha kelishuvlar savdo jarayonlarini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Ayniqsa, ekologik barqarorlikni ta'minlash, suv resurslaridan oqilona foydalanish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish kabi dolzarb masalalarda ikki tomonlama hamkorlik izchil rivojlanmoqda.

Markaziy Osiyo sharoitida suv va energetika masalalari o'zaro bog'liq ekanini hisobga olsak, bu yo'nalishdagi kelishuvlar nafaqat iqtisodiy, balki mintaqaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan ham strategik ahamiyat kasb etadi. Zotan, energetika va suv resurslarini boshqarishda mintaqaviy hamkorlik ekologik xavfsizlik bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, mazkur yo'nalishdagi kelishuvlar uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, parlamentlararo aloqalarning faollashuvi, qonunchilikni uyg'unlashtirish va imzolangan kelishuvlarning ijrosini ta'minlash borasidagi hamkorlik o'zaro munosabatlarimiz mustahkam institutsional asosini shakllantirmoqda.

Madaniy-gumanitar aloqalar esa xalqlarimiz o'rtasidagi ma'naviy yaqinlikni yanada mustahkamlamoqda. Mamlakatimizda o'tkazilayotgan Tojikiston madaniyati va kinosi kunlari, ta'lim va ilm-fan sohasidagi hamkorlik, talabalar va yoshlar almashuvini dasturlari bu yo'nalishdagi ishlarining amaliy ifodasidir.

Shuningdek, madaniy hamkorlik bo'yicha besh yillik dasturni qabul qilish tashabbusi munosabatlarida yangi uqflarni ochishi shubhasiz.

Bugun O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida shakllanayotgan munosabatlar mustahkam strategik sheriklik va ishonchli ittifoqchilik asoslariga ega. Eng muhimi, bu jarayonlar o'zaro ishonch, manfaatlar muvozanati va xalqlarimiz farovonligiga xizmat qilish tamoyillariga ko'ra buniyod bo'lmoqda. Bu esa O'zbekiston — Tojikiston munosabatlarini barqaror va uzviy rivojlanish yo'lga olib chiqadi. Zero, mustahkam do'stlik va amaliy hamkorlik barqaror taraqqiyotning eng ishonchli kafolatidir.

Tashrif yakunlari O'zbekiston — Tojikiston munosabatlarini iqtisodiy aloqalarni tiklash bosqichidan yagona iqtisodiy makonni shakllantirish bosqichiga o'tganini ko'rsatdi. Endi asosiy ug'u nafaqat savdodagi to'siqlarni olib tashlash, balki qo'shma ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va bozorlarni integratsiya qilishga qaratilmoqda.

Gumanitar sohada hamkorlik ham iqtisodiy sheriklikning ajralmas qismi. Ta'lim va ilmiy almashuvlar qo'shma loyihalar uchun malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qilsa, madaniy aloqalarning mustahkamlanishi iqtisodiy munosabatlarimiz asosi bo'lgan o'zaro ishonch muhitini yaratadi.

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi sheriklik nafaqat ikki mamlakat, balki butun Markaziy Osiyo uchun namunal modeldir. Bunday yaqinlik mintaqaning ochiqlik va o'zaro manfaat tamoyillariga asoslangan barqaror taraqqiyot modelini mustahkamlaydi.

Tojikiston Prezidentining O'zbekistonga tashrifi va erishilgan kelishuvlar ikki tomonlama munosabatlarida yangi uqflarni ochadi. Institutsional mexanizmlarning yaratilishi, sanoat va infratuzilma loyihalarining kengayishi uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun mustahkam poydevor bo'ladi.

Ushbu jarayonlar strategik ahamiyatga ega. Ular tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishga bevosita xizmat qiladi. O'zbekiston — Tojikiston hamkorligining chuqurlashuvini yangi O'zbekistonning barqarorlik, innovatsiya va ochiqlikka yo'naltirilgan iqtisodiy siyosati muvaffaqiyatning muhim omili sifatida baholash mumkin.

Boshlanishi 1-betda


“Yangi O'zbekiston — Uchinchi Renessans poydevori” zalidagi ekspozitsiyalar so'nggi yillardagi beqiyos o'zgarishlar, keng ko'lami ishlohtlar samaralari haqida so'zlaydi. Tarixan g'oyat qisqa davrda, atigi sakkiz-to'qqiz yilda qilingan ishlarni kuzatgan har bir inson — xoh yurtidoshimiz, xoh xorijlik bo'lsin, hayratdan yoqa ushlashi shubhasiz. Zotan, bunyodkor xalqimiz ishlab chiqarish, qurilish, qishloq xo'jaligi, transport, fan-texnika, ma'naviyat-ma'rifat, adabiyot-san'at, madaniyat, sport va boshqa sohalarida erishayotgan yutuqlarni jahon ahli ko'rib turibdi.

Buyuk muhaddis bobomiz Imom Buxoriy hazratlarining maqbarasi butun islom ummati uchun muqaddas maskanlardan biri hisoblanadi. Binobarin, ul ulug' zot to'plagan murabak hadislar kitobi — “Sahih Buxoriy” Qur'oni karimdan keyingi eng mo'tabar manbadir. Ana shu buyuk bobomiz maqbarasi joylashgan majmuva davlatimiz rahbari tashabbusi va bevosita rahbarligida qaytadan bunyod etildi. Mazkur majmuada muhtasham masjid, bir necha zamonaviy mehmonxona va boshqa inshootlar qad rostladi. Ziyoratga keluvchilar uchun eng zamonaviy talablarga javob beruvchi sharoitlar yaratildi.

Prezidentimiz 19-mart kuni ushbu majmuaga tashrif buyurdi. Majmuva markazida — Imom Buxoriyning tabarruk maqbarasi. “El-yurtimizning fidokorona mehnati bilan bugun orzu-niyatlarimiz ro'yobga chiqdi. Bu betakror ziyoratgohni Imom Buxoriy bobomizning olamshumul mavqegiga, yuksak maqomiga munosib darajada bunyod etishga muayassar bo'ldik”, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Majmuada bunyod etilgan yangi muhtasham masjidga 20-mart tongida ilk namoz — Ramazon hayiti namozi o'qildi.

Islom sivilizatsiyasi markazi ham, Imom Buxoriy majmuasi ham qadim va boy tariximiz ko'zguisi. Tariximizni qancha teran o'rgansak, o'zligimizni shuncha chuqurroq anglaymiz, qalbimizda o'timshimiz, buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish, g'ururlanish, eng muhimi, ularga munosib bo'lish tuyg'ulari jo'sh uradi. Davlatimiz rahbari Islom sivilizatsiyasi markazining rasmiy ochilish marosimidagi nutqida ta'kidlaganidek, “Tarix tilga kirgan, tarixdan saboq olingan joyda, albatta, bilim va ma'rifat, taraqqiyot va adolat bo'ladi. Hech qachon to'g'ri yo'ldan adashilmaydi!”.



Buyuk o'zbek yo'li

TINCHLIK VA HAMJIHATLIK — TARAQQIYOTNING MUHIM OMILLARI



Mamatqul HAZRATQULOVI, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

“Jaloliddin” poyezdi bo'lib...

Hayotimizning istisnosiz barcha sohalaridagi izchil ishlohtlarning hammasi bir maqsadga yo'naltirilgan: xalqimizning turmush farovonligini bundan-da yaxshilash, davlatimiz nufuzini yanada oshirish.

Transport sohasini rivojlantirish bo'yicha ham ulkan ishlar qilinmoqda. Jumladan, yangi temir yo'l liniyalari qurish, metro va temir yo'l transporti uchun yangi poyezdlar olib kelish borasidagi ishlar yurtidoshlarimizni quvontirmoqda. “Hyundai Rotem” kompaniyasidan olinta poyezd mamlakatimizga yetkazib berilishi rejalashtirilgan edi. Ularning birinchisi keltirildi. Prezidentimiz 18-mart

kuni ana shu yangi poyezdda jamoatchilik vakillari bilan birga Samarqand shahridan Narpay tumaniga bordi. Mazkur poyezd buyuk vatandoshimiz, jasoratli sarkarda Jaloliddin Manguberdi nomi bilan atalgan. Unda yettita vagon bor, poyezdning uzunligi 175 metr, 390 o'rinni, soatiga 260 kilometr gacha tezlikda harakatlanadi. Poyezdning yonidagi “Jaloliddin Manguberdi” yozuvini ko'rgan har bir yurtidoshimizning qalbi quvonch va g'ururga to'ladi. U O'zbekiston iqlim sharoitini inobatga olgan holda ishlab chiqarilgan, juda issiq va sovuq haroratga ham chidamli tizimlar bilan

jihozlangan. Mutasaddilarning aytishicha, poyezd yaqin kunlarda Toshkent — Xiva yo'nalishida qatnay boshlaydi. Toshkentdan Xivagacha 7 soatda boradi.

Poyezdning salonini ko'zdan kechiramiz. G'oyat hashamatli, zamonaviy, yo'lchilar uchun barcha qulayliklar yaratilgan. O'rindiqdar hammasi qulaylik darajada, eng zamonaviy masofyolarning o'rindiqdari kabi. O'rindiqdar orasi ham, o'rindiqdagi yo'lak ham keng, tepasi ancha baland. Bezaklar davr talabiga mos, ortiqcha jimjimiga yo'q.

Bularga havas va ichki suyunish ila temular ekanman, talablik yillarim yodimga tushdi. Toshkent — Samarqand orasida poyezdda ne azoblarda borib-kelganlarimni eslab, endi bir kulgim, bir yig'lagim keladi. Uch yuz kilometrli ana shu masofaga sakkiz soat yurardi poyezd. Shu nisbatan qisqa masofada taxminan o'nga yaqin joyda to'xtardi. Vagonlarning bado'yini va ko'ngilni aynitadigan boshqa holatimni aytmay qo'ya qolay. Bugungi poyezd — “Jaloliddin Manguberdi” bir ming ikki yuz kilometr masofani yetti soatda bosib o'tadi! Mana, yangi O'zbekistonda barcha sa'y-harakatlar inson manfaatlariga qaratilayotgan amaliy isboti!

Rejalashtirilgan poyezdlarning qolgan beshtasi ham keltirilsa, mamlakatimizning boshqa hududlariga ham yuqori tezlikda harakatlanuvchi poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yilishi tabiiy. Tasavvur qilib ko'raylik, bir tomonga “Afrosiyob”, boshqa tomonga “Jaloliddin Manguberdi” poyezdlari yursa, xalqimiz uchun qanday ulkan imkoniyat va imtiyozlar yaratilgan bo'ladi. Bu qulayliklardan, g'amxo'rliklardan suyunmaslik, g'ururlanmaslik, shukur qilmaslik, minnatdor bo'lmaslik mumkinmi?!

Bir paytlar ulug' shoirimiz Abdulla Oripov “O'zbekiston” she'rida xalqimizning yurtparvarligi haqida yozar ekan, “Jaloliddin samani bo'lib sakrab o'tding Amudaryodan” degan edi. Bugun “Jaloliddin Manguberdi” poyezdi jonajon O'zbekistonimiz xalqiga xizmat qilmoqda.

O'zimizdan chiqqaniga nima yetsin

Dunyo dengizdagay chayqalib turibdi bugun. Uning ayovsiz to'liqlari qaysi tomonga xavf soladi — hech kim bilmaydi. Bu to'liqlar bizdan uzoqda deb bo'lmaydi. Binobarin,



ko'plab davlatlar turli jihatlar bo'yicha o'zaro uzbeg bog'langan. Muayyan mamlakatda ro'y bergan yaxshi ishlar ham, ko'ngilsiz voqealar ham boshqalariga qaysidir darajada ta'sir o'tkazadi.

Bunday sharoitda qiyinchilik va mashaqqat, avvalo, oddiy xalq boshiga tushadi. Sababi — o'sha ayovsiz to'liqlar oqibatida ishlab chiqarish, turli mahsulotlar, jumladan, oziq-ovqat yetishtirish va tayyorlash kamayadi. Bu, o'z navbatida, narx-navo ko'tarilishiga olib keladi. Shunday bo'lgach, oddiy mehnatkash xalqning turmush sharoiti og'ir ahvonga tushib qoladi. Bunga tarixdan istalgancha misollar keltirish mumkin. Tarixni qo'yib turaylik, shu kunlarda Yaqin Sharqda kechayotgan voqealarga teran ko'z bilan qaraylik, tahlil qilaylik. Odamning eti uvishib, yuraklar zirqirib ketadi. Qancha begunoh odamlar — bolalar, ayollar, keksalar halok bo'ldi. Ularning aybi nima edi?

Bu voqealarni turli telekanallar, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari orqali ko'rib, o'qib, tinchlik naqadar ulug', bebaho ne'mat ekaniga qayta-qayta imon keltiradi har bir inson. Zero, tinchlik bo'lmagan joyda taraqqiyot ham, rivojlanish ham, halovat ham yo'q! Bayramu to'y-tomoshalarni-ku, tasavvur ham qilish mumkin emas!

Shunday ekan, yurtimizdagi tinch va osuda hayotning qadriga yetish zarur. Yaratganga beadad shukr bo'lsinki, xalqimiz tinch-xotirjam ishlayapti, dam olyapti, bexavotir tong

otiriyapti. Turli bayramlarni nishonlayapmiz, to'y-tomoshalar qilyapmiz. Biri biridan go'zal, muhtasham, zamonaviy inshootlar bunyod etmoqdami.

Ammo xotirjamlikka berilish mumkin emas. Chunki o'sha notinchlik, beqarorlik oqibatida turli muammolar vujudga kelmoqda. Jumladan, logistikada uzilishlar paydo bo'lib, neft narxi, transport xarajati oshayotgani kuzatilmoqda. Bular yurtimizga olib kelinadigan barcha turdagi mahsulotlar narxi ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Demak, mahalliy ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun shu turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish va yetishtirishni ko'paytirish har qachongidan ko'ra muhim hamda dolzarb ahamiyatga ega. Aslini olganda, hamma narsa o'zining chiqqaniga nima yetsin.

Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha Narpay tumanida 18-mart kuni o'tgan yig'ilishda davlatimiz rahbari ana shu masalalarga alohida e'tibor qaratdi. Har bir ishga yangicha yondashish, izlanish zarurligi — davr talabi. Tumanlarning o'ziga xos imkoniyat va sharoitidan kelib chiqqan holda rivojlanish modelini yaratish kerakligi ta'kidlandi. Buning uchun tumanlarning sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm, xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari, yer osti va yer usti zaxiralari, mehnat resurslari, aholining biznes va kasb ko'nikmalarini sun'iy intellekt yordamida tahlil qilish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Samarqand viloyatiga barcha manbalar hisobidan 11 trillion so'm, tadbirkorlarga kredit resurslari uchun yana 18 trillion so'm yo'naltirilayotgani aytiladi. Raqamlarga e'tibor berib: trillion! Aytishga oson. Ammo uning zamirida qancha mehnat, qancha mashaqqat bor! Zotan, bir so'm ham osmondan tushmaydi. Demak, bu mablag'ning har bir so'midan samarali, oqilona, eng muhimi, to'g'ri va halol foydalanish kerak. Katta-kichik rahbar bo'ladimi, tadbirkor bo'ladimi, fermer yoki ijtimoiy soha vakili bo'ladimi, davlat ajratgan resursni xalqimiz farovonligini yanada oshirish, jonajon Vatanimizni obod qilish, xalqaro nufuzini ko'tarish, alal-oqibat yurtimiz aholisini rozi qilishdek e'zgu va xayrli ishlarga sarflamoq' dardkor. Aks holda, ya'ni byudjet puli (bu xalqning puli) talon-taroj qilinsa, shaxsiy manfaatni el-u yurt manfaatidan ustun ko'rib, poraxo'rlikka, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilsa, odamlarda norozilik kuchayadi. Eng yomoni, aholida ulug' niyatlar bilan kechayotgan ishlohtlarga, davlat siyosatiga ishonch susayadi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, korrupsiyaga yo'l qo'yish ishlohtlarga xiyonatdir.

Yig'ilishda viloyatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning barcha sohalarini bo'yicha masalalar batafsil ko'rib chiqildi. Sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm, xizmat ko'rsatish, parrandachilik, baliqchilik, limon, qulupnay, kartoshka yetishtirish va hokazo sohalarida qilinishi zarur bo'lgan ishlar aniq belgilab berildi. Ularning har biridan ko'zlangan maqsad, odamlarga foydasi, pirovard natija — barcha-barchasi aniq misollar bilan tahlil qilindi. Masalan, parrandachilik, baliqchilik rivojlansa, aholi dasturxonini to'kin bo'ladi. Yaylovlarni ijaraga berish muddati uzaytirilsa, chorvachilik rivojlanadi, chorva mollari ko'paysa, go'sht serob bo'ladi. Qaysiki mahsulot ko'paysa, o'shaning narxi arzonlashadi. Bularning bari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Tumanlar infratuzilmasi, ya'ni yo'larni, ko'priklarni ta'mirlash, yangilarni qurish masalalari ham e'tibordan chetda qolmadi. Ushbu ishlar uchun zarur mablag' (milliardlab so'm) ajratiladigan bo'ladi.

Men bir holatga e'tibor qaratdim. Salkam uch soat davom etgan yig'ilishda biror marta paxta haqida, paxta yetishtirishning ahvoli, bu yilgi rejalar to'g'risida gap bo'lmadi. Ilgari bunaqa yig'ilishlar asosan paxta bilan boshlanib, paxta bilan tugar edi. Meva, sabzavot mahsulotlari yetishtirish xususida deyarli gapirilmadi. Bo'lar ekan-ku! Paxtasiz ham kun ko'rish mumkin ekan-ku! Ko'rganda ham paxta davridan ko'ra yaxshiroq yashash mumkin ekan! Buni bugun hayotimizda ko'rib turibmiz.

Ko'rilayotgan masalaning “ichiga kirgan”, ya'ni atrofiga o'rganagan odam ishonch bilan, qat'iy, qog'ozga qaramay gapiradi. Bunday rahbar hisobot berish bilan cheklanmaydi, mavjud muammolarni yashirmaydi va ularni hal qilish uchun nimalar qilish lozimligini, buning uchun qancha mablag' kerakligini ham aytadi.

Narpaydagi yig'ilishda ham shunday bo'ldi. So'zga chiqqanlar — vazirlik va idoralar rahbarlari yoki vakili bo'ladimi, tumanlar hokimlari yoki muayyan soha mutaxassisimi — aksariyatining so'zlarida yangicha fikrlash, masalaga zamonaviy yondashish sezilib turardi. Chunki yig'ilish boshidanoq erkin fikr bildirish, faqat yutuqlarni sanamay, muammolarni ochiq-oydin aytish muhiti yaratildi. Davlatimiz rahbari ma'ruza emas, ochiq, samimiy muloqot qildi yig'ilganlar bilan, ularning takliflarini eshitdi. Aksariyat masalalar o'sha yerning o'zidayoq hal etildi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan va qat'iy amal qilish kelinayotgan ochiqlik siyosatining amaldagi isboti edi bu.

...Ramazon oyi, bahorning boshlanishi elu yurtimiz uchun xayrli, barokati keldi, unutilmas tarixiy voqealarga boy bo'ldi. Bu quvonchli onlarning shavqu zavqi, taassurotlari yurtidoshlarimiz qalbidagina o'chmas iz qoldirgan shubhasiz. Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yilining har bir oyida, har kunida shodu xurramliklar, nurli voqealar ko'p bo'lsin.

Islohtlar amalda

Mamlakatimizda ijtimoiy soha obyektlari modernizatsiya qilinishi barobarida zamonaviy va energiya tejankor tizim bilan ta'minlanayapti. Bunday yangilanishlar Qoraqalpog'istonning chekka hududlarida ham infratuzilmaning yaxshilanib, aholiga munosib sharoit yaratilishida qo'l kelyapti. Ushbu vazifalar ijrosi uchun hududlarga grant mablag'lari jalb qilinmoqda. Energiya tejankor texnologiyalar bosqichma-bosqich joriy etilyapti. Ana shunday loyihalardan biri Chimboy tumanidagi 23-maktabda amalga oshirildi.

— Mazkur ta'lim maskanida 275 o'quvchi o'qiydi. Germaniya xalqaro jamiyatining 70 ming dollarlik grant mablag'i hisobidan maktabning isitish va elektr ta'minoti to'liq yangilandi. 35 kilovatt quvvatli issiqlik nasosi, 30 kilovattli quyosh paneli hamda yangi elektr transformator o'rnatildi. Natijada 705 kvadrat metr maydondagi bino qish mavsumida samarali isitilib, yozda sovitish imkoniyatiga ega bo'ldi, — deydi maktab direktori Raygul Aymurzaeva. — Avval maktab tabiiy gaz bilan isitilardi. So'ng 2-3 yil burun ko'mir bilan isitishga o'tdik. Joriy yildan boshlab zamonaviy va tejankor issiqlik nasoslari o'rnatilib, sutkasiga 13-14 kilovatt elektr energiyasi sarflanmoqda.

Quyosh panelari orqali ekologik toza elektr energiyasi ishlab chiqarilib, tarmoqqa tushadigan bosim ham kamaytirildi. Muhimi, o'quvchilar va pedagoglar uchun yil davomida qulay va barqaror ta'lim muhiti yaratildi.

Prezidentimizning hududlarni, xususan, chekka tumanlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi tashabbuslari doirasida bunday ishlar boshqa ta'lim muassasalarida

ham davom etmoqda. Jumladan, Taxtako'pir tumanidagi 11-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida energiya ta'minoti tizimi yangilandi. — Taxtako'pir tumani Janadarya mahallasi, xususan, bolajonlar uchun juda katta yangilik bo'ldi. Mazkur bog'chada 60 ga yaqin o'g'it-qiz tarbiyalanmoqda. Bu yerda zamonaviy isitish tizimi o'rnatilib, kichikintoylar uchun issiq, xavfsiz va qulay sharoit yaratildi. BMTning Taraqqiyot dasturi grant mablag'lari hisobidan 10 ming dollarlik isitish tuzilmasi bo'yicha grant g'olibi bo'lgan edik, — deydi 11-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti mudiri Gulnoz Shaxanova. — Hozir ko'mir bilan isitishdan voz kechib, zamonaviy, qulay va tejankor issiqlik tizimiga o'tdik.

Hozirgacha BMT Taraqqiyot dasturi grant mablag'lari hisobidan 3 ta obyektga, ya'ni Taxtako'pir tumanidagi 11-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, Chimboy tumanidagi 23-maktab va Taxiato'sh tumanidagi 23-maktabda isitish tizimi o'rnatilgan.

Qoraqalpog'istonda muqobil energiyaga qiziqish tobora ortib bormoqda. Xususan,

MUQOBIL ENERGIYANING MUNTAZAM QUVVATI



quyosh panellarini o'matayotgan fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari soni kun sayin ko'payib boryapti. Muhimi, “yashil” texnologiyalarni joriy etish istagini bildirgan fuqarolar va tadbirkorlar imtiyozga ega bo'lmoqda. Ya'ni 3 yil muddatga mol-mulk yoki yer solig'i, shuningdek, ortiqcha energiyani davlatga sotib topgan daromadning foyda solig'idan ozod etilgan.

— O'tgan yili noyabrda uyimizga 5 kilovattli quyosh panelini o'matdik. Qish bo'lishiga qarabay, bulutsiz kunlarda ham oyiga 300 kilovatt elektr energiyasi sotdik, — deydi nukuslik Alpisbay Baymurzaeva.

Qoraqalpog'iston miqyosida 2025-yili “Quyoshli xonadon” dasturi orqali 8700 ta xonadondan ariza kelib tushgan. Ular o'z vaqtida o'rganib chiqilib, 7442 ta xonadon uchun 52

megavatt quvvatdagi quyosh panellari o'matish uchun arizalar to'liq qabul qilingan. 2025-yilda xususiy xo'jaliklardan 44 million kilovatt-soat elektr energiyasi tarmoqqa uzatilgan. Shundan 29 million kilovatt-soati tarmoqqa sotilib, davlat byudjetidan 29 milliard so'm subsidiya asosida fuqarolarga to'lab berilgan.

— 2025-yilda quyosh paneli o'matgan xonadonlar yoz mavsumida o'rtacha 400-500 ming so'm daromad ko'rdi. Qishda quyoshli kunlar kamligi bois, 200-300 ming so'm atrofida foyda olingan. Hozir 2400 ulgurji iste'molchimiz bor, — deydi “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Qoraqalpog'iston hududiy filiali bo'lim boshlig'i Madiyara S'aylov. — Ushbu iste'molchilarga ikkinchi tarif bo'yicha 1 kilovatt uchun 800 so'mdan belgilangan. 2025-yili 34 million kilovatt-soat elektr energiyasi tarmoqqa uzatildi. Shundan 30 million kilovatt-soat hisoblab, hisobraqamlariga tushirib berildi.

Kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy himoyaga muhtojlarni qo'llab-quvvatlash va “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardir. Buni Prezidentimizning joriy yil 9-fevraldagi “Og'ir” mahallalarda kichik quyosh elektr stansiyalarini barpo etish orqali kambag'al oilalarni qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari

to'g'risida”gi qarori misolida ham ko'rish mumkin.

Ushbu hujjat asosida kambag'allik darajasi yuqori mahallalarda kichik quyosh elektr stansiyalari o'rnatilib, kambag'al oilalar barqaror daromad bilan ta'minlanadi. Energetika vazirligi Energiya samaradorligi milliy agentligi bilan birga “og'ir” mahallalarda daromad keltiradigan aktiv sifatida 300-500 kilovatt-soat quvvatli kichik quyosh elektr stansiyalarini ishga tushirish belgilangan. Loyihani moliyalashtirish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan 110 million dollar miqdorda mablag' ajratiladi.

Nukus tumanida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish, hududni muntazam elektr energiyasi bilan ta'minlash maqsadida ikkita kichik gidroelektr stansiyasi (GES) qurib foydalanishga topshirildi. — Nukus tumanidagi “Aqterek” mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan Bo'zatov kanali oqimidan foydalanib, quvvati 15 kilovatt-soat bo'lgan kichik GES va “Kerder” ovul fuqarolar yig'ini qarasuli Qizil uy ovulidagi To'rtko'l kanalining suv resurslari negizida soatiga 30 kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqaradigan kichik GES ishga tushirildi, — deydi Nukus tumani hokimi Ziyauddin Zaytov. — Bu aholi va atrofdagi ijtimoiy obyektlarni uzluksiz barqaror elektr bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Muqobil energiyadan foydalanish nafaqat muntazam quvvat manbai, balki qo'shimcha daromad keltiradigan tizimga ham aylanmoqda. Bu, o'z navbatida, mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Yaqinda bir asar o'qidim. Bosh qahramon o'rta yoshlardagi sog'lom, jismonan baquvvat, bilagi kuchga to'la, aqli raso erkak bo'lishiga qaramay, doim moddiy qiyinchiliklar girdobida yashaydi. Yaxshigina qalami bor, biroq faqat tahririyatlardan oladigan gonorar hisobiga kun ko'radi. Aniqlig'i, kun ko'rish uchun yozib turadi. Doim katta orzular bilan yashaydi. Ammo asar so'ngiga qadar kambag'alligicha qoladi.

Chetdan qaraganda, buning barchasiga qahramonning o'zi yoki taqdir aybdordek. U doim bu girdobdan chiqishga urinsada, jamiyatning befarqligi, atrofingilarning sovuqqonligi, qo'l uzatadigan kishi yo'qligi tufayli kambag'allik domiga tobora chuqur kirib boradi. Hech kim unga ko'mak berishi istamadi. Barchaning nazarida u nochor kimsa edi.

Kambag'allikning ildizi ko'pincha ana shunday befarqlikka borib taqaladi. Nochor, ishsiz odam jamiyatdan uzilib qoladi, o'zini atrofga begonadek his qiladi. Yordam beradigan bir necha kishini aytmasa, odamlar ham undan chetqoq bo'lishga intiladi. Chunki qo'ldan berganga qush to'ymas. Ishsiz, doimiy daromadga ega bo'lmagan odam o'zini o'nglab olishi baribir qiyin. Qo'lida hunari, kasb-kori bo'lmagan kishi tayinli ish topishi ham amri mahol. Natijada kambag'allik faqat moddiy yetishmovchilik emas, balki ruhiy tushkunlik, o'zini keraksiz his qilishga olib keladi.

Yangi O'zbekistonda kambag'allikka qarshi kurash boshlangan dastlabki kunlardan o'ziga shunday boshi berib ko'chaga kirib qolgan insonlarga yordam qo'li uzatildi. Bu shunchaki moddiy ko'mak emas, balki real va doimiy daromadga ega bo'lish, farovon hayot kechirish, jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida barcha qulayliklardan foydalanish uchun berilayotgan imkoniyat va imtiyozlar edi.

Shu tariqa yurtimizda kambag'allikni qisqartirish milliy harakatga aylandi. O'tgan davrda bu harakat bir muddat bo'lsa-da to'xtamadi. Yildan yilga faollashib, takomillashib boryapti. Shunga yarasha kambag'allik ko'rsatkichi ham pasaymoqda. O'tgan yili kambag'allik 8,9 foizdan 5,8 foizga tushirildi. 2026-yil yakunida 2,8 foizga tushishi, 2030-yilga borib esa mamlakatimizda kambag'allikka to'liq barham berish vazifasi qo'yilgan.

Bu ishlar o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q. Ularning ortida oilalar farovonligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar, chora-tadbirlar turibdi. Yo'nalishlar, harakatlari ko'lami nihoyatda keng. Yurtimizdagi har bir soha deyarli ana shu vazifaga yo'naltirilgan. Birgina bandlik yo'nalishini olaylik. Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yili 5,4 million yurdoshimizning bandligi ta'minlab, millionlab odam doimiy ish o'rni, tadbirkorlik va yangi iqtisodiy imkoniyatlar orqali daromad manbaiga ega bo'ldi. Shuningdek, hokim yordamchilari ko'magida mahallalarda 410 mingga yaqin mikroloyiha ishga tushirilib natijasida 840 ming kishining rasmiy bandligi ta'minlandi.

Har bir xonadondan fuqarogacha

Aholi bandligini ta'minlash kambag'allikni qisqartirishning asosiy va eng muhim qismi. Chunki kambag'al oila a'zolariga har qancha moddiy ko'mak berilmasin, doimiy ish joyi bo'lmasa, turmushini izga solib olishi qiyin kechadi. Bu tushunarli. Ammo masalaning boshqa jihati bor. Gap shundaki, aholi bandligini ta'minlash hamma mamlakatda dolzarb masalalardan.

Bugun dunyo e'tirof etayotgan, kerak bo'lsa, namuna olayotgan yangi taraqqiyot modelining o'ziga xosligi ham shunda — aholining ishsiz qatlami uchun turli yo'nalishlarda doimiy daromad manbaini yaratishga qaratilgan. Jumladan, O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda asosiy yetti tamoyil tanlab olingan. Bu faqat moliyaviy yoki

Bandlik dasturini amalga oshirish uchun qariyb 165 trillion so'm ajratiladi. Bu pulni 30 dan ortiq loyihaga yo'naltirish ko'zlangan.



Farovonlik xaritasi



ijtimoiy xizmatlar bilan cheklanib qolmaydi, — deydi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining birinchi o'rinbosari Marat Jo'rayev. — Bunda aholining ta'lim olishi, tibbiy xizmatlardan foydalanishi, yashash sharoiti, mahalla infratuzilmasini yaxshilashi, davlat organlari bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot qilishini ta'minlash kabi qamrab olinadi. Ana shu yo'nalishlar bo'yicha kambag'al oilalarga 200 dan ortiq xizmat ko'rsatib kelinmoqda. Barqaror bandlik yo'nalishida oilalarni xizmatlar bilan qamrab olish, yuqori daromad topishga qaratilgan sa'y-harakatlar shular jumlasidan. Bu yo'nalishda 50 dan ortiq xizmat mavjud bo'lib, ular kasb-hunarga o'qitish, moddiy ishga joylashtirish hamda tadbirkorlikka jalb qilish kabilarni qamrab oladi. 2025-yili kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan 523 ming oilaga "individual rejalar" asosida daromadini oshirishga qaratilgan qariyb 951 mingga xizmat ko'rsatildi.

Natijada 369 ming kishi doimiy ishga joylashtirildi, 132 ming fuqaroga kredit va subsidiya ajratildi, 395 ming yurdoshimiz tadbirkorlikka jalb qilindi, 54 mingi kasb-hunarga o'qitildi. Shu tariqa 2 million kishining moddiy ahvoli yaxshilandi, kambag'allikdan chiqarildi. Bundan tashqari, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha 32 yo'nalishda pilot loyihalar amalga oshirilib, 120 ming kambag'al oilaning daromadini ko'paytirish hisobiga reyestrndan chiqarishga erishildi.

Yurtimizda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha Xitoy va boshqa rivojlangan davlatlar tajribasi asos qilib olinganidan xabardormiz. Ammo bu dastlabki harakatlari uchun zarur tajriba edi. Keyingi qadamlar faollashib ketdi. Bu borada yaratilgan aholi bandligini ta'minlashdagi ko'plab yo'nalishlar mamlakatimizdagi xos noyob amaliyotga aylandi. Xonadonlardagi tomorqani daromad manbaiga aylantirishdan tortib, bo'sh yerlarni kambag'al oilalar, yoshlarga imtiyozli shartlarda ajratib berish, tadbirkorlar uchun tashkil etilayotgan katta-kichik sanoat zonalari so'zimiz tasdig'idir.

Bu borada eng katta samara bergan tajribalardan biri mahallabay ishlash tizimi va "mahalla yetiligi" faoliyatining yo'lga qo'yilganidir. U nafaqat yurtimiz, balki jahon amaliyotida o'xshashi yo'q, noyob tajriba. Yangicha yondashuv har bir xonadonni moliyaviy instrumentlar bilan qamrab olish imkonini berdi. Bugun aksariyat loyiha va harakatlar mahallada amalga oshirilyapti. Kambag'allikka barham berish choralarini ham mahallalarning o'zida ko'riyapti. Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yili yurtimizdagi 1435 mahalla kambag'allikdan xoli hududga aylantirildi. Joriy yilda bu raqamni 3500 taga yetkazish ko'zlangan.

Sharoiti og'ir hududlarga qo'shimcha mablag' ajratiladi

Bir qarashda mahalla doirasida odamlarni daromadli qilish imkonsizdek ko'rinadi. Axir kichik hududda qancha ham ish o'rni ochish mumkin deb o'ylardik. Davlatimiz rahbari tashabbuslar bilan ilgari surilgan g'oya va tashabbuslar buning aksini ko'rsatdi. Birgina tomorqachilik yo'nalishini olaylik. Avvallari hovlisidagi tomorqadan faqat o'z ehtiyoji uchun

"YASHIL" HAMKORLIK



— Ekin maydonlarini sug'orishda elektr energiyasi bilan bog'liq muammolarga duch kelganimiz, — deydi fermer Baxtiyor



tahlil qiladi. Mijozlar talabiga qarab mahsulotlar turi va dizaynini muttasil yangilab boradi. Ba'zi xonadonlarda ish ko'lami ancha kengayib, kattaroq joyga ehtiyoj paydo bo'lgan. Shu bois, mahallada 5 gektar maydonda kichik sanoat zonasi tashkil etish rejalashtirilgan. Xonadonlardagi ishlab chiqarish jarayoni mazkur hududga ko'chirildi.

Gap raqamlarda emas, natijada. Mahallalarning o'zida ish o'rnlari ochish juda katta harakat hamda samarali imkoniyatdir. Ammo buning uchun sharoit zarur. Masalan, tomorqadan unumli foydalanishga suv ta'minoti kerak. Tadbirkorlikni rivojlantirish, sanoat zonalari tashkil qilish uchun yo'llar infratuzilmasi, elektr energiyasi va ko'chalarni yoritish tizimini yaxshilash talab etiladi.

— O'tgan yili mamlakatimiz bo'yab eng og'ir ahvoldagi mahallalarni tanlab olib, ularda infratuzilma, suv ta'minoti, ichki yo'llar, ko'chalarni yoritish bo'yicha loyihalar amalga oshirilgani katta samara berdi, — deydi Marat Jo'rayev. — Chunki kambag'allik asosan sharoiti og'ir hududlarda ko'p bo'ladi. Bu hududlarni rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirish mumkin. 2025-yilda jami 1024 ta mahalla tanlab olinib, shundan suv ta'minoti og'ir 864 mahalladagi xonadonlar sug'orma suv bilan ta'minlandi. Ba'zi xonadonlarga ilk bor obiyahot kirib bordi. Natijada 80 ming gektarga yaqin yer o'zlashtirilib, odamlarga daromad keltiradigan aktivga aylandi. 954 mahallaning elektr energiyasi ta'minoti yaxshilandi. Bu yil ham sharoiti og'ir 37 tuman va 915 mahallani tanlab olganimiz. Ushbu mablag', birinchi navbatda, o'sha tuman va mahallalardagi infratuzilmani yaxshilash, odamlarning tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugun yurtimizda mehnat yoshidagi 21 milliondan ziyod fuqaroga mavjud. Ayni paytda 38 million fuqaroga ega O'zbekiston uchun bu katta mehnat resursi. Joriy yil avvalida mamlakatimizdagi ishsizlik darajasi 4,8 foizni tashkil etgani holga yil so'ngiga qadar buni 4,5 foizga tushirish reja qilingan. 2026-yil uchun Bandlik dasturi ham tasdiqlangan.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotiga ko'ra, mazkur dastur tadbirkorlikni rivojlantirish, "Mehnatsevar ayol", "Teng imkoniyat" kabi yangi dasturlar ishga tushirildi. Bu loyihalarning har biri orqali o'nlab, yuzlab fuqarolar kasb-hunarli, ishli bo'ladi. Maqsad ham shu — loyihalarni rejalning ortidan quvib emas, balki aql bilan, zamonaviy yondashuvlar asosida amalga oshirishga qaratilgan.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ishga tushirgan "Oson ish" platformasi ham shu maqsadga xizmat qiladi. Loyiha odamlarga zamonaviy, raqamlashgan tizim orqali ish topishga ko'maklashadi. Tizim ishi sun'iy intellektaga asoslanadi. Ish izlovchi hamda ish beruvchiga mos bo'sh ish o'rnlari bo'yicha ma'lumotlarni saralab, avtomatik ro'yxatni shakllantirib beradi. Saralash moduli malaka, mutaxassislik, hudud, maosh kabi besh yo'nalish bo'yicha tanlaydi. Saralangan ish o'rnlari talabgor yoki ish beruvchiga necha foiz mos kelishigacha ko'rsatib beradi. Ya'ni mazkur platforma elektron mehnat bozori bo'lib, ish izlash va topishni tezlashtirish, shaffof mexanizm sifatida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Iroda TOSHMATOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Investitsiya

Fransiya taraqqiyot agentligi Farg'ona shahridagi "Status soft" oilaviy korxonasi sarmoya kiritdi. Natijada tadbirkor intensiv usulda forel baliqlari ko'paytirishni yo'lga qo'ydi. Asosan sovuq suv havzalarida parvarishlanadigan bu baliq turi hozirgacha viloyat sharoitida yetishtirilmagan edi.

Forel baliqlarini yetishtirish va zarur qurilmalarni sotib olish uchun Fransiya taraqqiyot agentligidan 1 milliard 50 million so'mlik kredit oldik, — deydi "Status soft" oilaviy korxonasi rahbari Umidjon Madaminov. — Baliqni intensiv usulda parvarishlash katta mas'uliyat talab qiladi. Loyihani boshlashdan oldin turdosh korxonalar ishini o'rgandik. Forel baliq ko'p kislorod talab qiladi. Bir litr suvdagi kislorod miqdori 7,5 milligrammdan kam bo'lmasligi kerak. Shu bois, kislorod ishlab chiqaradigan va suvni zararsizlantiradigan qurilmalar o'rnatdik. Hozir sig'imi 10 kub metrli kichik suv havzasida 5000 ta forel baliq'ini parvarishlayapmiz. Suv harorati doim 13-14 darajada bo'lishi kerak. Uzluksiz kislorod, yuqori oqsilli maxsus ozuqalar berib boriladi.

Dastlabki natijadan ko'ngli to'lgan tadbirkor

loyiha ko'lamin kengaytirmoqchi. Hozirgacha baliq boqish uchun qo'shimcha 26 ta ko'l qurildi. Bu bir mavsumda 100 tonnadan ortiq bozorgir mahsulot yetishtirish imkonini beradi. Istiqbolli loyihalar dasturiga ko'ra, baliqchilik maktabi hamda baliq chavoqlari tayyorlashga ixtisoslashgan laboratoriya faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Farg'ona tumanidagi Jaloliddin G'oiyov fermer xo'jaligida ham yangi loyiha ishga tushirildi. Chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jalik ekin yerlarini sug'orish uchun shu kungacha elektr energiyasiga katta mablag' sarflagan. Bu mahsulot yetishtirish, qayta ishlash bilan bog'liq xarajati ko'paytirib, tanxarini oshirgan. Fransiya taraqqiyot agentligi fermer xo'jaligi hududida quyosh panellari o'rnatish uchun 300 million so'mlik kredit ajratdi.

Ushmonov. — Yangi loyiha tufayli nafaqat suv quduqlari, balki xo'jalik binolari ham barqaror elektr energiyasi



“

Hozir sig'imi 10 kub metrli kichik suv havzasida 5000 ta forel baliq'ini parvarishlayapmiz. Suv harorati doim 13-14 darajada bo'lishi kerak. Uzluksiz kislorod, yuqori oqsilli maxsus ozuqalar berib boriladi.

”

bilan ta'minlandi. Xarajat kamayib, samaradorlik oshdi.

“Yordon” naschilik fermer xo'jaligida bir milliard so'm kredit hisobiga tomchilatib sug'orish tizimi joriy etildi. Bu loyiha 50 gektardan ortiq ozuqa ekinini yerini uzluksiz suv bilan ta'minlab, hosildorlikni oshirishda qo'l kelmoqda. Grant mablag'lari keng qamrovli "yashil" loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilayotgani bilan e'tiborni tortadi. Xususan, sut va go'shtni qayta ishlash korxonalarini modernizatsiya qilish, sifatli ozuqa yemi ishlab chiqarish,

intensiv baliqchilikni rivojlantirish, zamonaviy molxona va tovuqxonalar qurish, parrandachilik, asalarichilikni rivojlantirish kabi yo'nalishlar ustuvor. Shuningdek, quyosh panellari o'rnatish, tomchilatib sug'orish tizimlarini joriy etish, ozuqa mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalarini xarid qilish singari "yashil" investitsiyalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Fransiya taraqqiyot agentligi "Chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirishni moliyalashtirish" loyihasi doirasida Farg'ona viloyatida umumiy qiymati 147,1 million yevro bo'lgan 29 ta istiqbolli dasturni amalga oshirmoqda, — deydi koordinatyor Sanjarbek Ergashev. — Natijada 800 dan ortiq yangi ish o'rni ochildi. Tashabbuskor tadbirkorlarga 10 yilgacha muddatga 3 yillik imtiyozli davr bilan 100 ming yevrogacha kredit ajratilmoqda. Ahamiyatli, loyiha muvaffaqiyatli chiqsa, berilgan mablag'ning 30 foizi grant sifatida qaytariladi. Ayollar yoki 24 yoshgacha bo'lgan yosh tadbirkorlar uchun esa bu ko'rsatkich 40 foizgacha yetadi.

O'zbekiston — Fransiya hamkorligidagi hayotbaxsh loyihalar hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirmoqda. Odamlarni ishli qilishda qo'l kelib, hududlar obodligiga xizmat qilyapti.

Rasul NAZIROV,
jurnalist



Yuksalish pallası

Ayni paytda mamlakatimiz aholisining katta qismi yoshlardan iborat. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, yurtimizdagi 22 milliondan ziyod o'g'il-qiz timsolida juda katta ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy kuchni ko'ramiz. Keyingi yillarda farzandlarimiz qo'lga kiritayotgan yutuqlar va ular uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ko'lami ortib borayotir. Mehnat bozoriga har yili 600 ming atrofida yoshlar kirib kelmoqda. 2030-yilga borib bu ko'rsatkich bir millionga yetishi mumkin. Shu bois, yoshlarni zamonaviy bilim va kasb-hunarga o'rgatish, mehnat bozori talablariga mos holda tayyorlash eng ustuvor vazifalarimizdan. Bu esa, o'z navbatida, oliy ta'lim muassasalari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, sanoat tarmoqlari uchun zarur mahsulotlar yetkazib berish, eksport salohiyatini oshirish hamda innovatsion taraqqiyotni jadallashtirishda agrar soha hal qiluvchi ahamiyatga ega.



2026-yil 13-mart, 61-son

BARQAROR AGRAR TA'LIM:

YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA SAMARALI MEXANIZM



Narzullo OBLOMURODOV, Toshkent davlat agrar universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sanoat modernizatsiyasi va texnologik o'sish asosi

Xalqaro tajriba dual ta'lim tizimi iqtisodiy barqarorlik va yoshlar bandligini ta'minlashda samarali mexanizm ekanini ko'rsatadi. Germaniya, Xitoy va Avstriya kabi davlatlarda mazkur tizim yoshlar ishsizligini kamaytirishda muhim omil bo'lgan. Xususan, Germaniya misolida ta'lim jarayonidayoq ish tajribasiga ega bo'lish imkoniyati yoshlar ishsizlik darajasining pasayishiga xizmat qilgan. Janubiy Koreya, Singapur va Yaponiya kabi davlatlar ham ishlab chiqarishga yo'naltirilgan ta'lim modeli orqali sanoat modernizatsiyasi va texnologik taraqqiyotga erishgan. Demak, nazariya va amaliyot uyg'unlashgan sharoitda kadrlar tayyorlash sifati va iqtisodiy samaradorlik yuqori bo'ladi.

Mazkur ta'lim turining ustun jihatlari bishyor. Jumladan, talabalar real ishlab chiqarish muhitida tajriba orttiradi. Nazariy bilimlar amaliyot orqali mustahkamlanadi. Mehnat intizomi va ishlab chiqarish madaniyati shakllanadi. Shu bilan birga, talabalar o'qish davridayoq daromad manbaiga ega bo'ladi. Bitiruvchilar tayyor mutaxassis sifatida mehnat bozoriga kirib boradi. Bu esa yoshlarning kasbiy moslashuv jarayonini tezlashtiradi va ishsizlik xavfini kamaytiradi.

Ayni jihatlarni nazarda tutgan holda, Toshkent davlat agrar universitetining qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va agromuhandislik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun dual ta'lim tizimi joriy etildi. Mazkur tashabbus doirasida talabalar Chirchiq shahridagi "Chirchiq Agro-Tech klaster"da amaliyot o'tayapti. Bu esa talabalarning ishlab chiqarish muhitida amaliy tajriba to'plash va mehnati uchun haq olish imkoniyatini yaratmoqda.

Prezidentimizning 2025-yil 9-dekabrda "Paxtachilik va g'allachilikda hosildorlikni oshirish uchun yuqori samarador intensiv agroteknologiyalarni qo'llashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan universitetimizda "yangi agronom" tizimi yo'lga qo'yildi. Mazkur tashabbus doirasida 2-3-bosqichdan izlanuvchan, tashabbuskor va xorijiy tillarni puxta egallagan 180 talaba hududlardagi paxtachilik va g'allachilikka ixtisoslashtirilgan klaster hamda fermer xo'jaliklariga birlashtirilib, amaliy ishlar boshlab yuborildi.



"Yangi agronom" tizimining asosiy vazifasi zamonaviy bilim va ilmiy izlanishlarga tayangan, innovatsion fikrlaydigan, yangi navlar, intensiv texnologiyalar va resurs tejoychi yechimlarni amaliyotga tatbiq eta oladigan

"AGROMUHANDISLAR MAKTABI" yo'nalishiga mos ishlab chiqarish tashkilotlari belgilanib, ularning texnik va texnologik rivojlanishini ta'minlash maqsadida hamkorlikda sun'iy intellektga asoslangan zamonaviy laboratoriya tashkil etiladi.



mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Shu jarayonda ta'lim klasteri prinsipi ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, "universitet - ilmiy muassasa - fermer xo'jaligi - klaster" o'rtasida uzviy hamkorlik yo'lga qo'yildi. Ushbu tashabbus orqali zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan yangi avlod agronomlari shakllandi. Hosildorligi past xo'jaliklarda ilmiy yondashuv kuchayib, samaradorlikni oshirish bo'yicha aniq tavsiyalar

joriy etiladi. Shuningdek, suv tejoychi va raqamli agroteknologiyalar, qishloq xo'jaligida sun'iy intellektdan foydalanish amaliyoti kengayadi. Natijada klaster va fermerlar o'rtasida ilg'or tajriba almashinuvi kuchayib, innovatsion texnologiyalarni qo'llayotgan xo'jaliklar soni ortib boradi.

Raqamli transformatsiya va kompetensiyalar

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda universitetda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilayapti. Jumladan, "Agromuhandislar maktabi" tashkil etilmoqda. Unda qishloq

xo'jaligida sun'iy intellekt, robototexnika, avtomatlashtirish, geoaxborot tizimlari, dron texnologiyalari va raqamli agroteknologiyalar bo'yicha maxsus o'quv kurslari, ta'lim dasturlari yo'lga qo'yiladi.

"Agromuhandislar maktabi" yo'nalishiga mos ishlab chiqarish tashkilotlari belgilanib, ularning texnik va texnologik rivojlanishini ta'minlash maqsadida hamkorlikda sun'iy intellektga asoslangan zamonaviy laboratoriya tashkil etiladi. Ushbu maktabda ishlab chiqarish tashkilotlari taqdim etgan muammolarni portfeli asosida ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini bajarish hamda qishloq xo'jaligi tashkilotlariga robototexnika, dron va boshqa qurilmalar yordamida yerdan samarali foydalanish, tuproq

tahlilini o'tkazish, ekinlarni parvarishlash, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish, resursetjankor texnologiyalarni joriy etish bo'yicha pulli xizmat ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, yirik ishlab chiqarish tashkilotlari bilan qo'shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish, iqtidorli talabalar va yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash, jumladan, ularning ilmiy izlanishlarini moliyalashtirishga e'tibor qaratilgan. Kurslar yakunida talabalarga maxsus sertifikat beriladi va ular agroklastler, fermer xo'jaliklari hamda korxonalariga raqamli xizmat ko'rsatish amaliyotida ishtirok etadi.

Prezidentimizning 2026-yil 13-martdagi "Agrar sektorni zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashning navbatdagi chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida qishloq xo'jaligida mexanizatsiyalash darajasini oshirish, jumladan, 2026-yilda paxtani mashinalar yordamida terib olish ulushini 70 foizgacha yetkazish belgilangan. Demak, sohada qishloq xo'jaligi texnikalari, paxta va g'alla kombaynlarni boshqarish operatorlariga ehtiyoj ortadi.

Shundan kelib chiqib, universitet talabalarining amaliy ko'nikmasini oshirish maqsadida diplom bilan birga qo'shimcha malaka berish tizimi yo'lga qo'yiladi. Jumladan, birinchi kursni tamomlagan talabalar traktorlarni boshqarish huquqini beruvchi traktorchi-mashinist guvohnomasini olishi mumkin. Ikkinchi kursni tamomlagan, mazkur guvohnomaga ega talabalar esa qo'shimcha ravishda zamonaviy paxta terish mashinalari va g'alla kombaynlari hamda janjirli traktorlarni boshqarish huquqini beruvchi traktorchi-mashinist guvohnomasini olish imkoniyati taqdim etiladi.

Toshkent davlat agrar universitetida joriy etilgan dual ta'lim tizimi, amaliy mashg'ulotlarning agroklastlerlar va ishlab chiqarish korxonalarida tashkil etilishi, qo'shimcha kasbiy malaka berish kurslari hamda raqamli texnologiyalarga asoslangan o'quv dasturlari bitiruvchilarning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Mazkur tizim natijasida universitet bitiruvchilari agroklastlerlar, fermer xo'jaliklari, sanoat va servis korxonalarida o'z mutaxassisligi bo'yicha to'liq ish bilan ta'minlanmoqda. Dual ta'lim asosida tayyorlanayotgan yangi avlod agronomlari, agromuhandis va texnolog mutaxassislar esa agrosanoat majmuasining tayanchi bo'lib, oziq-ovqat xavfsizligi va mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.



Dolzarb mavzu

UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 15-24 yoshdagi aholining 70 foizdan ortig'i internetdan faol foydalanadi. Bu esa, tabiiyki, yoshlar ongida axborot ta'siri keskin kuchayishiga olib kelmoqda. Ushbu holatni o'rganish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish ayni paytda dolzarb vazifalardan. Chunki keyingi paytlarda aholining yosh qatlami bevosita tarmoqlardagi kayfiyat, muloqot ta'sirida voyaga yetmoqda. Afsuski, o'smirlarning qo'lidagi telefonni nazorat qilish mushkul bo'lib qoldi.

TRENDMI yoki TAHDID?

KIBERBULLINGning XAVFLI DINAMIKASI



Kamoliddin TO'RAYEV, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

haqorat yoki tahdid shular jumlasidan. Bir guruh odamlarning yozishmalar orqali shaxsni qabul qilmaslik, rad etish va u bilan muloqot qilishni istamaslik holati guruh zo'rovonligidir. Bunga kichik misol — guruhni tanlash yoki boshqalar bilan birga muloqotga qo'shilish istagiga qaramay, ishtirokchini umumiy suhbatdan majburan chetlatib yuborish. Boshqa shaxslarning foto va videomateriallarini ijtimoiy tarmoqqa joylashtirish hamda tarqatish maqsadida ruxsatsiz foydalanish vizual zo'rovonlik deb ataladi.

Olimlar Twitter, ya'ni X platformasidagi o'smirlarning kibertajovuzkorligini tahlil qildi. Natijalar tajovuzkorlarni tavsiflash va aniqlash qiyinroq ekanini ko'rsatadi. Chunki ular oddiy foydalanuvchilar kabi e'tiborni jalb qilmay, o'zini juda sipo tutishi mumkin, lekin ayni paytda kiberbullingdan foydalanishga qodir. Bunday

holatda agressiya kiberbullingdan tizimli emasligi bilan farq qiladi. Shuning uchun ko'pincha unga jiddiy zarar keltiruvchi sabab sifatida qaralmaydi. Biroq bu jabrlanuvchining psixologik to'kisligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va takroriy onlayn ta'qiblar bilan bir xil oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Kiberbullingning o'ziga xosligi va ortib borayotgan xavfi shundaki, anonimlik, ya'ni



shaxsini yashirgan tufayli tajovuzkor jazosiz qolishi va harakatlari uchun o'zini aybdor his qilmasligi mumkin. Jabrlanuvchi esa muntazam tashvish va qo'rqunvi his qiladi. Kiberbullingning keng tarqalgan shakllariga qo'rqitish yoki muntazam yuborilgan haqoratli xabarlar kiradi. Boshqa bironing shaxsiy ma'lumotlarini rozilgisiz oshkor etish, boshqa foydalanuvchining obro'siga putur yetkazish

maqsadida uni kamsituvchi ma'lumotlarni tarqatish yoki chop etish, ko'pincha boshqa foydalanuvchiga qaratilgan tahdidlar bilan birga kiberta'qib qilish, trolling yoki masxaralash, haqoratlash va odobsiz so'zlashi ishlatish orqali bulling qurboniga ta'sir ko'rsatadi. Aksariyat hollarda xulq-atvori tajovuzkor o'smirlar kiberbujum qurbonlaridan kam bo'lmagan darajada yordamga muhtoj. Rossiyalik

tadqiqotchilar har xil darajadagi kiberbulling xavfi ostida bo'lgan o'smirlarning turli darajali holatini aniqladi. Ma'lum bo'lishicha, ularning aksariyati uchun tashqaridan yordam so'rash odatiy hol emas va paydo bo'ladigan xavflarni mustaqil yengish qobiliyati intensiv foydalanish bilan bog'liq. Bundan tashqari, AQSHlik o'smirlar orasida onlayn bezorilik tarqalishini tizimli ko'rib chiqish maqsadida o'tkazilgan 32 ta tadqiqot natijasida mamlakatda kiberbullingning tarqalishi 1 dan 41 foizgacha o'zgarib turishi ma'lum bo'ldi. Shu bilan birga, qurbon bo'lish xavfi 72 foizgacha, tajovuzkor pozitsiyasini egallash esa 16,7 foizgacha yetishi mumkin. 2019-yilda Rossiyada yosh foydalanuvchilarning qariyb 70 foiz kiberbullingdan aziyat chekayotgani, 44,3 foizi esa boshqa odamlarga nisbatan kiberbullingdan foydalanishi qayd etilgan.

Bu o'smirlarni kiberbullingga nima undaydi degan savol bugun aksariyat tadqiqotchilar, o'qituvchilar va ota-onalarni birday qiziqtirayotgani tabiiy. O'rganishlarga ko'ra, o'smirlarning o'tmishda tahqirlangani uchun qasos olishga intilishidir. Tengdoshlarining bosimi ham o'quvchilarni onlayn bezorilikka undashi mumkin. Chunki ular o'zi uchun obro'li shaxs sifatida harakat qiladigan do'stlar guruhiga moshlashishga intiladi.

Ba'zi tadqiqotlarga ko'ra, kiberbulling qurboni bo'lish ehtimoli ayollar orasida yuqori. Internetda

ko'p vaqt o'tkazadigan va onlayn xavfli xatti-harakatlarga jalb qilingan, shuningdek, an'anaviy maktab bezoriligi qurboni bo'lganlar aksariyat hollarda qizlardir.

O'smir bolalar kiberbullingga ko'proq moyil bo'ladi. Qizlardan farqli o'laroq, ular o'smirlik davrida tajovuzkor zo'rovonlikni boshdan kechiradi va bu haqda ota-onalarga yoki o'qituvchilarga kamroq xabar beriladi.

Kiberbulling bolalar va o'smirlarning psixologik to'kisligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu ta'sirni kamaytiradigan qator omillar mavjud. Birinchi navbatda, oilaviy munosabatlardan qoniqish hissi kiberbulling qurbonlarining o'z joniga qasd qilish niyatini kamaytiradi. Bunday xavfni kamaytiradigan yana bir omil maktabdagi muhitning nazorat qilinishi va tartibga solinishidir. Shuningdek, kiberbullingning oldini olishdagi asosiy yo'nalishlar sifatida internet platformalarining xavfsizlik darajasini oshirish, bolalar va ota-onalarni internetda adekvat xatti-harakatlarga o'rgatish kabi mezonlar muhim.

Ba'zi ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlarda maxfiylik sozlamalarini o'rnatish imkoniyati mavjud. Bu esa foydalanuvchilarga salbiy sharhlardan qutulish va huquqbuzarlarni bloklash imkonini beradi. Shu bilan birga, tarmoq ma'muriyatiga yozish yoki zo'rovonlik holatlarini haqida xabar berish mumkin.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar rivojlangani sayin bizning jamiyatga ham kiberbulling xavfi ortib bormoqda. Maktablarda o'smirlarning tajovuzkor xatti-harakatlarining oldini olish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Pedagoglarning psixologik kompetensiyasini oshirish va voyaga yetmaganlarning tengdoshlari bilan munosabatlaridagi psixologik muammolarni bartaraf etish zarur. Virtual zo'rovonlikdan aziyat chekkanlar bilan individual va guruhli psixoterapiya usullari orqali shug'ullanish tavsiya etiladi.


Kiberbulling va an'anaviy maktab zo'rovonligining o'zaro bog'liqligi dolzarb masaladir. Bezorilikning bu turidagi odatiy ketma-ketlik va rivojlanish qiy holatda ekani, muloqotning qanday shakllardan foydalanilishi va ularni bezorilik jarayoni ishtirokchilari qanday qabul qilishini aniqlash vitual hamda real tajovuzning tuzilishi va dinamikasini aniqlashga yordam beradi.



Shukuh

“O'ZBEKISTON DEYA ATALUR...”

VODIY UZRA BAHORIY TANTANALAR



Sayyora TO'YCHIYEVA,
“Ma'rifat” targ'ibotchilar
jamiyati a'zosi, professor

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda “Ma'rifat” targ'ibotchilar jamiyati yo'llanmasi bilan “Navro'z sayli” festivali doirasida vodiy sari yo'ldik.

So'x va Shohimardon bayramlar og'ushida

Farg'ona va Qirg'izistonning Botken viloyatlari orqali o'tgan So'x-Rishton yo'li bo'yab dengiz sathidan ming metr balandlikdagi Oloy tog' tizmalari bilan o'ralgan So'x tumaniga kirib bordik. Uning xushmanzara tabiati, mo'tadil iqlimi, tumanigoh buloqlari va boshiga bulutlar

qo'ngan archali tog'lari ko'zni quvontiradi. Bu so'lim go'sha ekoturizm, agroturizm, qishloq turizmi, etnoturizm, tibbiyot va alpinizmni rivojlantirish uchun qulay maskan ekaniga amin bo'ldik.

Xo'ja Orif, Qulfi Zanjirkushod, Sulton Mahmud G'aznaviy, Hazrat Ali va Ravon ziyoratgohlari bu ko'ha zamin tarixidan so'zlaydi. 1890-yili bu hududdan ilon shakli bo'rtirib tushirilgan toshum topilgan. Arxeologlar bu tumor miloddan avvalgi III ming yillik oxiri — II ming yillik boshlariga mansub ekanini ilmiy jihatdan isbotlab bergan. Ayniqsa, Saribozorcha mahallasi hududida joylashgan Kuv qal'asi, qal'a atrofidagi Xo'ja Orif, G'aznaviy Kuvimug' tepasi, Mug' qal'asi va hududdagi nodir suratlar davlat ro'yxatiga olingan arxeologik yodgorliklar sifatida saqlanayotgani diqqatga sazovor. Tarixchilar Zahridin Muhammad Boburning Hindiston sari yurishidan oldin bir yil So'xda turgani haqida tarixiy manbalarda yozgan.

Davlatimiz e'tibori tufayli keyingi yillarda sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalarida katta rivojlanish sezildi. Yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari tubdan yangilandi, maktab, bog'cha, shifoxona, madaniy va sport obyektlari qurildi. Suv ta'minoti va tabiiy ofatlardan muhofaza yo'nalishlarida muhim ishlar qilindi. Tuman taraqqiyoti uchun 1 trillion so'm yo'naltirilgan, yangi uy-joylar barpo etilgan, yo'llar ravelonlashgani, elektr va suv ta'minoti yaxshilangani, zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarini faoliyat yo'lga qo'yilgani, tadbirkorlik va hunarmandchilik keng rivojlangani so'zimizning yaqqol isbotidir.

Hozirgi So'xni olti-yetti yil avvalgisi bilan qiyoslab bo'lmaydi. Tumanimizdagi davlatga tegishli 29 ta va nodavlat 48 ta maktabgacha ta'lim tashkilotining navbatma-navbat ta'mirlanayotgani, rekonstruksiya qilinayotgani e'tiborga molik. Maktablarimizning kitob fondini boyitish, zamonaviy maktab-bog'chalarni jahon standartlari asosida zarur texnik vositalar bilan jihozlash borasidagi chora-tadbirlar farzandlarimizning yaxshi o'qishi va munosib tarbiya topishiga xizmat qilmoqda, — deydi 26-maktab direktori, xalq deputatlari tuman kengashi deputati Farrux Boborustamov. — Avvallari o'qituvchilarning chet tili bo'yicha sertifikat yo'q edi. Hozir esa 50 muallim shunday sertifikatga ega. O'zim ham menejment sertifikatiga ega bo'lganim uchun 50 foizli ustama bilan 1000 dollar maosh olaman. Yuzlab so'xlik o'qituvchilar xuddi shunday daromad topmoqda. 2017-yilgacha

tumanimizda 22 ta bog'cha mavjud edi, keyinchalik yana 8 ta MTT qurilib, ishga tushirildi. Shu davrda 48 ta xususiy bog'cha ham faoliyat boshladi. Maktablarimiz soni 26 tadan 33 tagacha ko'paydi. Ta'lim sohasining zamonaviy markazlar darajasiga ko'tarilayotgani biz, ustozlarga yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

— Oila tinch bo'lsa — mahalla tinch, mahalla tinch bo'lsa, yurt tinch bo'ladi, — deydi tumanidagi Sarikanda mahallasi raisi Bahodir Safoyev. — Tumanda ko'plab millat vakillari ahil-inoq yashaydi. O'tgan yili mahallamizda 18 kilometr yo'l asfalt qilindi, yoshlar sport maydonchasi ishga tushirildi va kutubxona markazi tashkil qilindi. O'tgan sakkiz yilda tumanimiz yo'li 100 foiz asfaltlashtirildi. Shuningdek, 298 kilometr elektr tarmoqlari tortilib, 82 ta transformator punkti qurildi.

Tumanda kartoshkachilik va xo'jagat (malina) plantatsiyalari tashkil etilishi,



shuningdek, baliqchilik, asarichilikning keng yo'lga qo'yilishi aholi farovonligiga xizmat qilmoqda. Tumaning Javpaya va Qayroq massivlarida yangi yer maydonlarini o'zlashtirish, nasos agregatlarini o'rnatish, intensiv bog'lar barpo etish va tomchilatib sug'orish borasidagi yangi tadbirlar minglab oilalarning daromadi oshishiga sabab bo'layotir.



Mehnat faxriysi Asqarali Mirzayev So'x tumanida aholini markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlash darajasi 49 foizdan 70 foizga yetkazilgani haqida faxr bilan so'zlaydi. Bundan tashqari, tabiiy gaz ta'minoti yaxshilangani, suyultirilgan gaz majmuasi ishga tushirilgani va tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi tubdan o'zgariganini ta'kidlaydi.

uyg'unlashib, butun xalqni Navro'z sayliga chorlaydi.

“ Navro'zga ko'rilgan tayyorgarlik xonadonlarning sarishtaligida, bodom, o'rik, shaftoli va olma daraxtlari qiyg'os gullagan ko'chalarda, shuningdek, varrak uchirayotgan bolalarning shodon ovozi yaqqol aks etadi. Bu xosiyatli bayram dillarni dillarga yaqinlashtirishi va ko'ngillarda bahoriy his-tuyg'ularni yashnatishi bilan benihoya fusunkor.

Bunyodkorlik ishlarini bajarayotgan tuman ahlining Navro'z va sumalak sayillari osh tanlovi hamda kurash musobaqasi bilan boshlandi. Bayram maydoniga kirishdagi kitob yarmarkalari, hunarmandlarning rang-barang qo'l mehnati ko'rgazmalari,

Shohimardonga safarimiz Farg'ona tumanining Vodil, Botken viloyatining Qadamjoy va Oqqiyo nazorat postlari hamda Qirg'izistonning Qorasaroy, Ko'kmo'ynoq va Chendaki qishloqlari orqali kechdi. Yastanib oqayotgan Shohimardonsoyning ikki irmog'i — Oqsuv va Ko'ksuv bo'yalaridagi yashil daraxtlar xuddi sollanib salom berayotgandek edi. Yomg'ir tomchilari jilosida tovlanagan bodom gullari esa bahorning hayotiylar ranglarini aks ettirib, ko'z o'ngimizda xuddi kamalak suvatlarini jonlantirdi.

Ko'p o'tmay, Shohimardon va Yordan qishloqlari yigitlari o'rtasida futbol musobaqalari, ko'chaboshi oqsoqqollar orasida osh damlash bellashuvlari hamda hududdagi uchta maktab o'qituvchilari ishtirokida Navro'z mushoiralari boshlanib ketdi. Festival doirasida noyob etnografik eksponatlarini o'zida jam qilgan mahalliy muzey faoliyati yaqindan o'rganildi. Ushbu bebaho boyliklarni asrab-avaylab kelayotgan, qolaversa, hudud yoshlarini ma'rifatli qilishga bel bog'lab, kutubxona ochishini o'z oldiga maqsad qilgan yurtdoshlarimiz ma'rifat fidoyilari deya e'tirof etildi. Yangi tashkil qilinajak ushbu kutubxona uchun Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan maxsus kitoblar to'plami yuboriladigan bo'ldi.

— Shohimardonda hamqishloqlarimning o'rta umr ko'rish ko'rsatkichi 85-90 yoshga to'g'ri keladi, — deydi tumanidagi 64-oilayli poliklinika bosh shifokori Jasurbek Tirkashev. — Doimiy harakat, dehqonchilik, toza havo, musaffo tabiat va zilov sul, aslida, sog'lom turmush tarzining asosiy garovidir.

Shohimardonliklarning tog' va adirlarda dehqonchilik qilishi birmuncha mashaqqatli.

Shu sababli aholi asosan chorcavchilik hamda olma, o'rik, shaftoli kabi mevalarni yetishtirish orqali oilaviy daromadni oshirib borishi haqida otaxonlar gapirib berdi.

Shahrixonda shodiyonalar

Vodiyga borsangiz, Muhammad Yusufning “Nechun qulluq qilmay Andijonga men?” degan misralari har bir andijonlikning dil izhoriga aylanganini his qiliasiz. Shuningdek, Mirzo Bobur va Cho'lponning mumtoz satrlarini beixtiyor takrorlayverasiz. Benazir hozimiz Sherali Jo'rayevning “Andijon tomonlarda” qo'shig'ini esa qayta-qayta tinglagingiz keladi.

Navro'zga ko'rilgan tayyorgarlik xonadonlarning sarishtaligida, bodom, o'rik, shaftoli va olma daraxtlari qiyg'os gullagan ko'chalarda, shuningdek, varrak uchirayotgan bolalarning shodon ovozi yaqqol aks etadi. Bu xosiyatli bayram dillarni dillarga yaqinlashtirishi va ko'ngillarda bahoriy his-tuyg'ularni yashnatishi bilan benihoya fusunkor.

Shahrixon tumanidagi Cho'ja mahallasida tashkil etilgan Navro'z saylida bo'ldik. Bir kilometr uzunlikdagi butun ko'cha sahninging ikki tomoni so'rilar va gilam-poyandozlar bilan bezatilgan. Turli ko'rgazmalar, doirachi yigitlar va yal-yal yongan atlas libosli qizlar safi maydonni to'ldirgan edi.

Bayram davomida mashhur so'z ustasi Boltaboy Toshmatovning ichakuzi hangomalari tuman ahliga xushkayfiyat ulashdi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Shohida Uzoqova ijrosidagi taronalar esa barchani davraga chorladi.

Tumanning Eshon mahallasida yashovchi Muyassarxon Sultonova uch o'g'li va olti nabirasining ezgu niyatlarini bunday ifodalaydi: “Bolalar bilimli va ma'rifatli bo'lib ulg'ayishi uchun, eng avvalo, onalar mas'uldir. Kitobga va mutolaaga qiziqqan bolalar haqiqiy vatanparvar va millatparvar bo'lib o'sadi. Xalqimiz bejiz “Bolalarimizga kitob o'qishni o'rgatib, qolgan barcha narsani kitobning o'zi o'rgatadi”, demagan. Savodxon va kitobxon farzandlarimiz kelajakda yurtimizning chinakam faxriga aylanadi”.

Ibrohim otaning duolari

Namangan deganda, dunyoga ne-ne zakovatli insonlarni yetishtirib bergan tabarruk maskan ko'z o'ngimizga keladi. Axsikent, Munchoqtepa, Ayritom va Mug'tepa singari qadimiy yodgorliklar bu ko'ha o'lkaning naqadar bog' madaniyati va ma'rifatdarak beradi. Insoniyat tafakkur dunyosiga zeb bergan Maxdumi A'zam Kosoniy, Boborahim Mashrab, Fazliy, Nodim Namangoni, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda va Mavlono Lutfulloh singari namanganlik asl ziyolilarni hurmat bilan eslash ayni muddaodir.

Namangan tumanidagi Bektemir, Qumqo'rg'on, Shamsiko'l va Qulqo'rg'on mahallalarida o'tkazilgan Navro'z sayli tadbirlarida ishtirok etarkanmiz, tumanidagi ehtiyojmand 22 yurtdoshimizga alohida ega-salomlar tarqatilib, yo'qlovlar yuvshirilganiga guvoh bo'ldik. Shuningdek, mutasaddilarning nogironligi bo'lgan shaxslar, ehtiyojmand oilalar, tabarruk otaxon va onaxonlar, qolaversa, iqtidorli yoshlarga alohida mehr-e'tibor ko'rsatayotgani dilni quvontirdi.

Tumanning Bektemir mahallasida istiqomat qiluvchi Gulchehra Jo'rayevaning ikki o'g'li va bir qizi bor. Biz farzandi Sheralini bayram munosabati bilan yo'qlash maqsadida onaning xonadonida mehmon bo'ldik.

— Yaxshilarga ming rahmat, mas'ullar bolamning salomatligini tiklash borasida yordamini ayamayapti, — deydi Gulchehra opa. — Ko'ping boriga shukur, mahalla-ko'y doimo yonimizda, bizni yolg'izlatib qo'ymaypti. Onaman, barcha onalar qatori men ham, eng avvalo, yurtimizning tinchligini so'rab du'o qilaman. Kichik tomorqamizda sarxil meva-cheva ko'p, bolalarim va nevaralarim bilan birgalikda dehqonchilik qilamiz. Uymiga televidzorda ko'rib yurganimiz, havas qiladigan san'atkorlarimizning qadam ranjida qilishidan esa boshim ko'kka yetdi.

Chust tumanidagi Dehqonovlar xonadonini butun Namangan ahli juda yaxshi biladi. Oila boshlig'i Narimon Dehqonov — Namangan davlat universiteti professori va xalq deputatlari viloyat kengashi deputati. Bu ma'rifatli oiladan to'rt nafar fan doktori va ikki fan nomzodi yetishib chiqqan, nabiralari esa Prezident maktablarida tahsil olmoqda. Farzandlardan biri “Ibratli oila” ko'krak nishoni bilan taqdirlangan bo'lsa, yana biri “Islolotlar bilimdoni” respublika ko'riktanlovi g'olibi.

Chustlik mohir hunarmandlardan yana biri, “Mo'tabar ayol” ko'krak nishoni sohibi Nurxon Boybayeva o'z qizlari va kelinlari bilan ellikka yaqin qiz-juvonga do'ppi tikish sir-asrorini o'rgatib kelmoqda. U iroqi, qalampir, chamangul singari naqshlar bilan bezatilgan do'ppilarni ta'riflar ekan, ayol kishining tadbirkorligi va uddaburonligi oila farovonligida nechog'liq muhim o'rin tutishi haqida so'zlab berdi.

Baymoq mahallasi yoshlar yetakchisi Mirzo Mamajonov esa Kosonsoy tumanidagi Maxdumi A'zam mahallasida o'tkazilgan Yoshlar festivali doirasida so'zga chiqib, mamlakatimizda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar haqida gapirib berdi.

Sevimli shoirimizning “O'zbekiston deya atalur, uni sevib el tilga olur” degan satrlari barchamizni yurtimizning go'zal shahar kentlarini sevish va ardoqlashga undaydi. Biz bugun mana shu azim yurtning obod go'shalari hamda daryodil, fidoyi yurtdoshlarimizni cheksiz mehr bilan tilga oldik. Bugunidan ko'ngli to'q va ertasidan umidi katta bo'lgan bunday xalqning ko'tarinki bayram kayfiyatini ko'rib, ularning niyatini duolarida yangrayotgan tinchlik va osoyishtalik shukronasini tinglab turib, xayolimizdan “Xalqimizda qadimdan qolgan bir hikmatli gap bor: qayerda shukronalik va ahilik bo'lsa, o'sha yerda osoyishtalik hukm suradi. Tinch va osoyishta yurtda esa, albatta, fayzu baraka to'kin bo'ladi. Fayz-u barakali bunday yurtning farzandlari esa shu yurtning porloq kelajagiga aylanadi” degan fikrlar o'tdi.

Namanganing ardoqli otaxonlaridan biri, Namangan tumani Dehqonobod mahallasida istiqomat qiluvchi 107 yoshli Ibrohim bobo Xo'jayevning quvidagi duolari dilimizni butkul yayratib yubordi.

“Yomg'ir bilan yer ko'karar, duo bilan — el, aziz bolalarim! Davlatimizga tinchlikni barqaror ta'minlab turish oson bo'layotgani yo'q. Bunyodkorlik va taraqqiyot faqatgina tinchlik bo'lsagina tatiydi. Ilohim, O'zbekistonimizda hamisha tinchlik hukm sursin! Dili beg'amlik, xotiri jamlik, imoni mustahkamlik va har kunimiz bayram bo'lsin, ilohim!”.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetlari tahririyati” DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-346.
31346 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Boboravshan G'oziddinov
Musahhib: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy